جديد

2026-yil 17-iyul
№ 29 (133)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

XORIJDAN XAT

PARIJDAGI MEROSIMIZ

Ayni kunlarda O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov Fransiyada ilmiy tadqiqot olib bormoqda. U Parij shahrida joylashgan Insonshunoslik fanlari fondining “Taklif etilgan professor” dasturi stipendiyasini qo‘lga kiritgan. Hurmatli olimimizning xorijdan yo‘llagan maqolasi mushtariylarimizni bee’tibor qoldirmaydi, deb ishonamiz.

TAHRIRIYAT

(Davomi 5-sahifada).

YETTIKUN

GLOBAL DIPLOMATIYA, INDUSTRIAL YUKSALISH, IJTIMOIY ADOLAT VA INSONIYLIK

Yakuniga yetayotgan hafta Yangi O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida o‘ta muhim, strategik ahamiyatga ega va millionlab insonlar hayotiga daxldor bo‘lgan tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ish grafigi juda tig‘iz va keng qamrovli kechdi: og‘ir sanoatda yangi davrni boshlab bergan Bekobod tashrifi, sharqona qadriyatlar va oliy darajadagi do‘stlik ramzi bo‘lgan Qatar safari, keksalar farovonligini ta’minlovchi inqilobiy pensiya islohotlari taqdimoti hamda Yevropaning eng rivojlangan markazlaridan biri – Italiyaning Toskana viloyati delegatsiyasi bilan muzokaralar.

Ushbu voqealar zanjiri mamlakatimizda iqtisodiy qudratni oshirish, pragmatik tashqi siyosat yuritish va “inson qadri uchun” tamoyilini hayotga izchil tatbiq etish borasidagi islohotlar mutlaqo yangi bosqichga chiqqanini namoyish etdi.

OG‘IR SANOATDAGI TEXNOLOGIK INQILOB VA XALQQA YENGILLIK

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Toshkent viloyati Bekobod shahriga tashrifi mamlakatimizning sanoat mustaqilligini ta’minlash yo‘lidagi ulug‘vor qadam bo‘ldi.

Eng zamonaviy texnologiyalar va og‘ir sanoatni rivojlantirish orqali iqtisodiy qudratni mustahkamlash hamda ushbu boylikni oddiy odamlar hayotini yaxshilashga yo‘naltirish doimiy ravishda Davlatimiz rahbarining e’tiborida.

Prezident shaharga yangi zamonaviy elektropoyezdda keldi. 192 kilometrlik ushbu yo‘nalish yiliga 300 ming yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadi.

Vagonlardagi yuksak qulayliklar (Wi-Fi, konditsioner, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus ko‘targichlar) aholining uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qildi. Bu ekologik toza transport ulushini oshirish va avtomobil yo‘llaridagi tirbandlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

“O‘zmetkombinat” AJda qiymati 839 million dollarlik Quyuv-prokatlash majmuasining ishga tushirilishi O‘zbekiston metallurgiyasi tarixida yangi davrni boshlab berdi.

(Davomi 2-sahifada).

MUNOSABAT



KO‘ZGA KO‘RINMAS XAVF

yoxud bugun dalada qoldirgan plastigimiz ertaga dasturxonimizga qaytishi haqida

Dehqon va fermer uchun yer – jon, suv – qon, hosil – ro‘zg‘or. Biz butun umrimizni dalada o‘tkazamiz, undan non, paxta, meva va sabzavot olamiz, oilamizni boqamiz, yurtimizni ta’minlaymiz. Yerga mehrimiz shunchalik kuchliki, uning har bir qarichini kaftimizdek taniymiz. Ammo dunyo ilmi ana shu aziz tuprog‘imizga, suvimizga va dasturxonimizga ko‘zga ko‘rinmas yangi bir xavf asta-sekin kirib kelayotganidan ogohlantirmoqda. Bu xavfning nomi – mikroplastik.

Bugun shu mavzuni har bir fermer tushunadigan tilda ochib bermoqchiman. Chunki yechim faqat katta shaharlardagi laboratoriyalarda emas, balki bizning dalamizda, har bir dehqonning kundalik qaroridan ham boshlanadi.

MIKROPLASTIK NIMA O‘ZI?

Plastik hayotimizga shu qadar singib ketganki, usiz bir kunni tasavvur qilish qiyin. Polietilen paket, sug‘orish lentasi, mulcha plyonkasi, o‘g‘it qopi, plastik idish, kimyoviy vosita qutisi – bular dalada ham, hovlimizda ham tobora ko‘payib bormoqda. Plastikning eng katta muammosi shundaki, uning aksar turlari tabiiy moddalar kabi tez chirib, yo‘qolib ketmaydi. Quyosh nuri, issiq va sovuq, shamol, ishqalanish hamda yerga ishlov berish ta’sirida yirik plastik asta-sekin mayda bo‘laklarga parchalanadi.

Besh millimetrdan kichik plastik zarralar odatda mikroplastik deb ataladi. Bir mikrometrdan kichik o‘ta mayda zarralar esa ko‘pincha nanoplastik deb yuritiladi, garchi bu o‘lcham chegaralari bo‘yicha xalqaro ilm-fanda hali to‘liq yagona standart mavjud bo‘lmasa ham.

(Davomi 3-sahifada).

FAKT

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**
- **Dunyodagi eng yirik oltin qazib oluvchi korxonalarning yangi reytingida Muruntov koni ikkinchi, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati beshinchi o‘rindan joy oldi.**
- **O‘zbekiston terma jamoasi 56-Xalqaro fizika olimpiadasida (IPhO 2026) munosib ishtirok etib, tarixda ilk bor 2 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi.**
- **Markaziy bank huzurida Islomiy moliya kengashi tashkil etildi.**

YORUG‘ XOTIRALAR



BIR OILA TARIXI

So‘lim Farg‘onaning munis bag‘rida
Bor olti ariqdan suv ichgan qishloq.
Unda
Chorak asr mendan narida
Bolaligim chopar to‘zg‘itib tuproq...

Erkin VOHIDOV

Aka – suyanchiq, tirgak, maslakdosh, shu bilan birga, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi shamchiroq. Xalqimizning ardoqli farzandi Erkin Vohidov amakimning o‘g‘li, qadrdon akam edi.

Har bir oilaning tarixi, o‘ziga xos sir-asrori bo‘ladi. Vohidovlar oilasining ham o‘z tarixi bor. Abduvohid bobomizning olti farzandi bo‘lgan. Xususan, qizlar – Soliyaxon, O‘g‘iloy, Lutfixon va o‘g‘illar – G‘afurjon, Cho‘yanboy, Homidjon. Ammalarimning tug‘ilgan sanalarini bilmayman. G‘afurjon opoqdadam 1900-yilda tug‘ilib, 1958-yilda vafot etgan. Esimda qolgani, u kishi kasal bo‘lganida dadam uyga olib kelib, parvarish qilgan, vafot etganida men 12 yashar edim. Ammalarimning o‘g‘il-qizlari olamdan o‘tganiga ham ancha bo‘ldi.

Dadam Homidjon aka 1917-yilda tavallud topgan. 1939-yilda oila qurgan. Ayam kelin bo‘lib tushganida 15 yoshda bo‘lgan. Erkin akam uch yoshli bola bo‘lgan. To‘ydan uch oy o‘tib dadam armiyaga ketgan. Ayam biror ishni qilmoqchi bo‘lsa, Erkin akaning onasi Roziya ayamga: “Kelinoyi, siz hamma narsani bilasiz. Mana bu narsani qanday qilsam bo‘lar ekan-a...”, deb doim maslahat so‘rarkan.

(Davomi 5-sahifada).

SAFARDAN SO‘NG

TURKIY DUNYO KUTUBXONALARI BIRLASHMOQDA

Bundan roppa-rosa bir asr avval Boku shahrida turkiy dunyoning 131 nafar fidoyi ziyolisini bir davraga jamlagan ilk tarixiy Turkologiya qurultoyi bo‘lib o‘tgan edi. Oradan yuz yil o‘tib, bu yerda “Turkiy dunyo haftaligi” yuqori saviyada tashkil etildi. Dunyoning 20 dan ortiq mamlakatidan kelgan yuzdan ziyod olim va turkologlarni birlashtirgan xalqaro anjumanning ochilish marosimi haqiqiy ma’rifat bayramiga aylandi. Unda ishtirok etish bir ziyoli sifatida kamina xodimingizga ham quvonch bag‘ishladi.



(Davomi 2-sahifada).

VATAN MANZUMASI

AMUDARYO QIZI

Sarvinoz AYTMURATOVA,
“Kelajak bunyodkori” medali sohibasi,
Zomin seminari ishtirokchisi



Hey, o‘zgacha olam, Amuning qizi,
Qo‘shiq kuylab, seni yod etgim keldi.
Boshqa boyligim yo‘q. Qalamim, so‘zim...
Bayramda tabriklab, shod etgim keldi.

Diydoring eslatar Amu sohili,
Bolalik. Toshloq yo‘l. Qumlar yodimda...
To‘lqinlarga ko‘z-ko‘z qilib kokilin,
Bir qiz chopib yurar mening yonimda.

Qushlar bor, bulut bor, u emas yolg‘iz,
Gulchambarlar taqib o‘ynaydi xushvaqt.
Qara, odamlarsiz, mashinalarsiz,
Sohilda yurgani – uning uchun baxt.

Zeriksa, daraxtdan bir novda uzib,
Qum yuziga surat chiza boshlaydi.
Qara, tanidingmi, Amuning qizi,
Shu qiz menga o‘xshar, senga o‘xshaydi.

Qalbingni yoritsin muhabbat tongi,
Gullardan poyondoz to‘shar bahoring.
O‘qigan sevimli kitobingdagi
Eng yaxshi qahramon bo‘ladi yoring.

Muhabbat tilayman yomg‘irday toza,
Ko‘nglingga tushmasin yolg‘onning izi.
O‘ynab-kulib yasha, baxtiyor yasha,
Umring nurli bo‘lsin, Amuning qizi!

Qoraqalpoq tilidan Rustam Musurmon tarjimasi

GLOBAL DIPLOMATIYA, INDUSTRIAL YUKSALISH, IJTIMOIY ADOLAT VA INSONIYLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Prezident Bekoboddagi “Xos yoz” kanali bo‘yida va “Do‘stlik” mahallasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini ko‘zdan kechirdi, nuroniylar va yoshlar bilan suhbatlashdi: “Odamlar o‘z mahallasida, shahrida kechayotgan o‘zgarishlarni his qilishi, ularning samarasini kundalik hayotida ko‘rishi kerak”, – deya ta’kidladi Davlatimiz rahbari.

O‘ZBEKISTON VA TOSKANA HAMKORLIGINING YANGI UFQLARI

Tarix charxpalagi shunday aylanadiki, ba’zan asrlar osha madaniyat va ilm-fan markazlari bo‘lgan yurtlar yangi davrda mutlaqo yangicha va pragmatik mazmunda qayta topishadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Italiyaning Toskana viloyati gubernatori Eujenio Jani boshchiligidagi delegatsiyani qabul qilgani aynan shunday tarixiy va iqtisodiy ahamiyatga ega voqelik bo‘ldi.



Ushbu uchrashuv O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga – to‘g‘ridan to‘g‘ri hududlararo hamkorlik bosqichiga olib chiqdi. O‘zbekiston va Toskanani shunchaki bugungi iqtisodiy qiziqishlar emas, balki ko‘p asrlik tarixiy va madaniy rishtalar bog‘lab turadi. Buyuk Ipak yo‘li gullagan davrlarda jahon madaniyati va san’atining beshigi bo‘lgan Florensiya bilan Movarounnahrning qadimiy shaharlari o‘rtasida faol savdo va elchilik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

Tarixning guvohlik berishicha, florensiyalik savdogarlar va elchilar Sohibqiron Amir Temur saroyida yuksak ehtirom bilan qabul qilingan.

Bugun – oradan asrlar o‘tib, ushbu tarixiy do‘stlik va ishonch zamonaviy iqtisodiy va texnologik sheriklik ko‘rinishida yangidan kuch olmoqda.

Toskana Italiyaning eng iqtisodiy rivojlangan, boy va nufuzli hududlaridan biri hisoblanadi. Ushbu viloyat kuchli sanoat salohiyati, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, zamonaviy qishloq xo‘jaligi, jahonga mashhur vinochilik va turizm industriyasiga ega. Viloyat markazi Florensiya esa insoniyat tamaddunida tub burilish yasagan Uyg‘onish (Renessans) davrining umume’tirof etilgan markazidir.

Toskana bilan hamkorlik bir qator ustuvor yo‘nalishlarda katta istiqbollarni va’da qilmoqda. To‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat va zargarlik sanoati, zamonaviy shaharsozlik va muhandislik yechimlari, Toskananing uzumchilik, vinochilik va oziq-ovqatni qayta ishlash bo‘yicha ilg‘or tajribasini O‘zbekistonga olib kirish shular jumlasidandir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va gubernator Eujenio Jani o‘rtasida bo‘lib o‘tgan samimiy va sermahsul muloqot yakunida o‘ta muhim kelishuvga erishildi. Tomonlar yaqin istiqbolda Toskana viloyati va O‘zbekiston hududlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan yangi aniq investitsiyaviy loyihalar va tashabbuslarni qamrab oluvchi qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va qabul qilishga ahdlashdilar.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Uchinchi Renessans poydevorini qurish yo‘lidagi islohotlar Italiyaning Uyg‘onish davri beshigi bo‘lgan Toskananing boy sanoat, texnologik va madaniy tajribasi bilan birlashmoqda. Bu hamkorlik yaqin yillarda yurtimizga yangi innovatsiyalar, sifatli ta’lim, zamonaviy zargarlik va yengil sanoat texnologiyalari hamda millionlab yevrolik istiqbolli investitsiyalarni olib kelishi shubhasizdir.

MUNOSIB KELAJAK KAFOLATI

Har bir davlatning ijtimoiy siyosati, uning fuqarolariga bo‘lgan g‘amxo‘rligi va inson qadri tamoyiliga sodiqligi keksalik nafaqasi tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi. Munosib keksalik va barqaror kelajakni ta’minlash – Yangi O‘zbekiston islohotlarining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning pensiya tizimini isloh qilish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishgani ushbu sohada yangi, tizimli va texnologik davr boshlanayotganidan dalolat beradi. Taklif etilayotgan o‘zgarishlar nafaqat millionlab pensionerlarning turmush darajasini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun ulkan moliyaviy resurslar manbayini yaratadi.

Oxirgi o‘n yil ichida O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimida ulkan masofa bosib o‘tildi. Mamlakatimizda o‘rtacha va eng kam pensiya miqdorlari izchil oshirib borildi. 2021-yilgacha bo‘lgan davrda 1,1 million nafar fuqaroning oylik nafaqasi atigi 400 ming so‘mdan kam bo‘lgan. Bugungi kunga kelib, eng kam pensiya miqdori 878 ming so‘mga yetkazildi. Mazkur ko‘rsatkich mamlakatda belgilangan minimal iste’mol xarajatlaridan sezilarli darajada yuqoridir. Ushbu qadam davlatning eng zaif qatlamlarni kambag‘allik chegarasidan olib chiqish borasidagi qat’iy qadamini ko‘rsatadi.


Avvallari tizimdagi ba’zi cheklanishlar fuqarolarning haqqoniy va yuqori pensiya olishiga to‘sqinlik qilar edi. Masalan, pensiya oxirgi 10 yillik mehnat faoliyatining istalgan 5 yillik ish haqidan hisoblanar va ish haqining faqat 6 million so‘mgacha bo‘lgan qismi inobatga olinar edi.

Ushbu tizim ko‘p yil halol mehnat qilib, yuqori maosh olganlarning nafaqasi pasayib ketishiga sabab bo‘lgan.

Endilikda tizim tubdan adolatlilik tamoyili asosida o‘zgartiriladi.

Masalan, pensiya hisoblanadigan ish haqi davri 5 yildan 20 yilgacha uzaytiriladi. Bunda fuqaroning past daromad olgan yoki ishlamagan ayrim davrlari hisob-kitobdan chiqarib tashlanadi. Bu butun umr davomidagi mehnat stajini to‘g‘ri baholash imkonini beradi. 2027-yildan boshlab pensiya hisoblashda inobatga olinadigan ish haqining eng yuqori chegarasi hozirgi 6 million so‘mdan 6,6 million so‘mga oshiriladi. Natijada ushbu yangi tartib asosida pensiyaga chiqadigan fuqarolarning nafaqa miqdori o‘rtacha 8 foizga oshishi kutilmoqda.

Bu islohotlar kelajak avlodlar uchun mustahkam va adolatli ijtimoiy poydevor bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.



DO‘STLIK VA ISHONCH KO‘PRIGI

Sharq diplomatiyasi va qadriyatlarida bir oltin qoida bor: chin do‘stlik va birodarlik nafaqat quvonchli kunlarda, balki boshga sinovli damlar tushganda, qayg‘uli onlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatar Davlati sobiq Amiri Shayx Hamad bin Xalifa Ol Soniyning vafoti munosabati bilan ta’ziya bildirish uchun ushbu mamlakatga amalga oshirgan tashrifi nafaqat yuksak insoniy fazilatlar, balki ikki davlat o‘rtasidagi oliy darajadagi ishonch va yaqinlikning yorqin ifodasi bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyga otasi – sobiq Amir Shayx Hamad bin Xalifa Ol Soniyning vafot etgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildirar ekan, ushbu siyosiy arbobning tarixiy xizmatlarini alohida e’tirof etdi.

Eng muhimi, sobiq Amir O‘zbekiston va Qatar o‘rtasidagi yaqin do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik poydevorini qurishga beqiyos hissa qo‘shgan edi.

Shavkat Mirziyoyevning ushbu tarixiy shaxs xotirasiga ko‘rsatgan yuksak ehtiromi Qatar xalqi va rahbariyati tomonidan juda iliq va samimiy qabul qilindi.

Uchrashuvda Davlatimiz rahbari Qatarning bugungi kunda nafaqat Yaqin Sharqda, balki butun dunyoda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashdagi muhim vositachilik rolini alohida qayd etdi. Bugungi kunda xalqaro maydonda salmoqli kuchga va nufuzga ega “Doha ovozi” paydo bo‘lgani e’tirof etildi.

O‘zbekiston Prezidentining Qatarga amaliy tashrifi va ta’ziya uchrashuvi ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar shunchaki quruq diplomatik manfaatlardan ko‘ra chin samimiyat, Sharqona birodarlik, chuqur tarixiy hurmat va strategik sheriklikka asoslanganini butun dunyoga ko‘rsatdi.

Iqbol MIRZO

TURKIY DUNYO KUTUBXONALARI BIRLASHMOQDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Biz uchun eng hayajonlisi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birinchi Turkologiya qurultoyining 100 yilligi munosabati bilan yo‘llagan qutlov murojaati o‘qib eshittirilgan daqiqalar bo‘ldi. Prezidentimiz turkiy davlatlarning yetakchi ilmiy markazlarini birlashtirgan holda, “Turkiy dunyo ma’rifatparvarlari” xalqaro ilmiy-ensiklopedik loyihasini yaratish hamda jadid harakati namoyandalarining barcha asarlari va arxiv hujjatlarini o‘z ichiga olgan Yagona raqamli kutubxona shakllantirish tashabbusini ilgari surdi.

Xalqaro anjuman dasturidan yigirmadan ziyod rang-barang tadbirlar o‘rin olgan bo‘lib, ular doirasida sohaviy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e’tibor berildi. Jumladan, Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Milliy kutubxonasida “Turkiy dunyo milliy kutubxonalari” jamoat birlashmasining ilk yig‘ilishi o‘tkazildi hamda “Birinchi Turkologiya qurultoyi. Stenografik hisobot” va “Birinchi Turkologiya qurultoyi. Bibliografiya” nashrlarining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Kutubxonadagi tadbirlar avvalida XX asr turkologiya tafakkuri tarixidagi eng muhim hodisalardan biri hisoblangan Birinchi Turkologiya qurultoyi qatnashchilarining xotirasi bir daqiqalik sukut bilan yod etildi. So‘ng “Umumiy meros, boy xazina: Milliy kutubxonaning oltin fondidan” nomli kitob ko‘rgazmasi mehmonlar e’tiboriga havola qilindi.

Ozarbayjon Milliy kutubxonasi direktori, professor Karim Taxirov ko‘rgazmaning ochilish marosimida Birinchi Turkologiya qurultoyi turkiy xalqlarning tili, madaniy merosi va ilmiy hamkorlik istiqbollarini belgilab bergan olimlarni birlashtirgani, ularning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega ekanini alohida qayd etdi. Ozarbayjondagi Otaturk markazi direktori, akademik Nizomiy Ja’farov ushbu tarixiy anjumanning 100 yilligi yuqori darajada tashkil etilganini e’tirof etdi. Ozarbayjon Milliy Majlisining Fan va ta’lim qo‘mitasi raisi, professor Anar Iskandarov o‘z chiqishida sakkiz



kun davom etgan o‘sha tarixiy anjuman turkiy dunyodagi fikr va g‘oyalar rivojiga, ilmiy-madaniy integratsiya jarayonlariga ulkan ta’sir ko‘rsatganini ta’kidladi.

Tadbirda “Birinchi Turkologiya qurultoyi. Stenografik hisobot” nashrini tayyorlashda ishtirok etgan olimlar, tarjimon va mutaxassislar guruhining mashaqqatli mehnati yuqori baholandi. Shu bilan birga, arxivdagi audioyozuvlarni tinglashdagi texnik murakkabliklar sababli rus tilidan ozarbayjon tiliga o‘girilgan dastlabki tarjima matni ustida ishlarni yana davom ettirish, keyingi nashrlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish zarurligi qayd etildi. “Birinchi Turkologiya qurultoyi” elektron ma’lumotlar bazasi ham keng jamoatchilikka taqdim etildi.

Taqdimoti o‘tkazilgan “Birinchi Turkologiya qurultoyi. Bibliografiya” nashrini yaratish ishlari ancha avval boshlangan bo‘lib, to‘plamni tuzishda ko‘plab xalqaro hamkorlarga murojaat xatlari yuborilgani va keng ko‘lamli izlanishlar natijasida 1890 ta manbaning bibliografik yozuvi jamlangani ma’lum qilindi. Ushbu bibliografiyaning e’tiborli jihatlaridan biri, tadqiqotchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida maxsus yordamchi ko‘rsatkichlar bilan ta’minlanganida ko‘rinadi. Hamkorlik qilgan mamlakatlar, shuningdek, muallif va tarjimonlarning alifbo tartibidagi ko‘rsatkichlari shular jumlasidandir.

Mazkur nashrning 289-293-sahifalaridan O‘zbekistonda mavzuga oid chop etilgan kitoblar hamda vaqtli matbuotda e’lon qilingan maqolalarning yillar va tillar kesimidagi tizimli ro‘yxati o‘rin olgan. Ushbu nufuzli manbani tayyorlashda O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bibliograflarining ishtiroki alohida e’tirofga sazovor bo‘ldi. Anjumanda so‘zga chiqqan Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vazirining o‘rinbosari Saodat Yusifova ushbu qimmatli manbalarni yaratishga hissa qo‘shgan hamkorlarga minnatdorlik bildirdi. Boku davlat universiteti rektori Elchin Boboyev universitetning Milliy kutubxona bilan yo‘lga qo‘yilgan muvaffaqiyatli hamkorligi bundan keyin ham izchil qo‘llab-quvvatlanishini ma’lum qildi.

Tashrif doirasida Ozarbayjon Milliy kutubxonasi bo‘ylab maxsus ekskursiya tashkil etildi. Yurtimizdan borgan taniqli olimlar Hamidulla Boltaboyev va Inomjon Azimov bilan birga kutubxonaning “O‘zbekiston” burchagiga boy mazmundagi kitob va jurnallar to‘plamini hadya qildik. Tadbir davomida olimlarimiz tomonidan milliy kutubxonalar o‘rtasidagi bunday izchil hamkorlik va raqamli hamjihatlik qardosh mamlakatlarda ko‘plab istiqbolli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda, umumiy tarixiy merosni chuqur o‘rganishda muhim omil bo‘lishi alohida qayd etildi.

Anjuman davomida Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi prezidenti, akademik Iso Habibbeyli “Turkiy dunyo milliy kutubxonalari” jamoat birlashmasining tashkil etilishi 1926-yil Birinchi Turkologiya qurultoyi belgilab bergan maqsad va tamoyillarni kelajakda uyushqoqlik bilan davom ettirish uchun muhim maydon bo‘lishini ta’kidladi.

Kunning ikkinchi yarmida “Turkiy dunyo milliy kutubxonalari” jamoat birlashmasining ilk yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda Ozarbayjon, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Turkiya, Shimoliy Kipr va Vengriya Milliy kutubxonalari direktorlari ishtirok etdi. Professor Karim Taxirov bundan ikki yil avval poydevori qo‘yilgan uyushmani endilikda xalqaro tashkilot sifatida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish hamda boshqa turkiy davlatlarni ham unga jalb etish bosh vazifa ekanini aytib o‘tdi.

Bugun turkiy davlatlar dunyo maydonida nufuzli kuchga aylanib borayotgan bir davrda, kutubxonalar o‘rtasidagi hamkorlik ham yangi bosqichga chiqmoqda. Yig‘ilishda Turkiya Milliy kutubxonasi direktori Taner Beyog‘lu, Qozog‘iston Akademik milliy kutubxonasi direktori Kumis Seitova, Qirg‘iziston Milliy kutubxonasi direktori Eldar Attokurov va O‘zbekiston tomonidan kamina hozirgi shiddatli va tahlikali zamonda kutubxonalar integratsiyasi o‘ta muhim hamda dolzarb ahamiyatga ega ekanini yakdil qo‘llab-quvvatladik. Biz “Turkiy dunyo raqamli kutubxonasi”ni ishga tushirish, “Turkiy dunyo milliy kutubxonalari” jamoat birlashmasining rasmiy saytini yaratish, kutubxonachilar uchun tajriba almashuv va malaka oshirish maqsadida ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish, turkiy tillar uchun sun’iy intellekt, OCR va avtomatik tarjima texnologiyalarini hamkorlikda rivojlantirish takliflarini ilgari surdik.

Yig‘ilishda barcha takliflar umumlashtirilib, tuzilmaning 2026-2027-yillar uchun harakatlar rejasi belgilab olindi va uning tashkiliy faoliyatini kuchaytirish bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilindi. Bir so‘z bilan aytganda, kasbiy uchrashuv turkiy davlatlar milliy kutubxonalari o‘rtasida samarali hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim poydevor bo‘ldi.



Umida TESHABOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori

Anjumanning madaniy dasturi ham unutilmas lahzalarga boy o‘tdi. Hafta davomida turkiy dunyo mehmonlari uchun Boku sayrgohida katta tantanali konsert uyushtirilib, unda O‘zbekiston san’atkorlari ham o‘z chiqishlari bilan dasturga fayz bag‘ishladi. Boku go‘zalligi odamni hamisha maftun etadi. Ayniqsa, dunyodagi ilk inklyuziv muzey eksponatlari – Brayl alifbosidagi ma’lumotlar bilan ta’minlangan Ozarbayjon milliy gilam muzeyi, Ozarbayjon milliy tarixi muzeyi, “Qiz qal’asi” va Eski shahar taassurotlari o‘zgacha bo‘ldi.

Bundan bir asr muqaddam Boku zaminida boshlangan ma’rifat va birlik harakati qatnashchilarining orzu-armonlari besamar ketmaganini shu kunlarda yaqqol his qildik. Yo‘qotilgan imkoniyatlar, qatag‘on qilingan ulug‘ bobolarimizning xotirasi bugun kutubxonalar va ilm-fan olamida kuch olayotgan yangi hamkorlik nafasi bilan qayta tirilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Birinchi Turkologiya qurultoyi o‘z davrida milliy o‘zlikni anglash yo‘lida tub burilish yasagan bo‘lsa, yuz yildan so‘ng o‘tkazilgan ma’rifat bayrami yangi asrda turkiy dunyoning nafaqat madaniy-ilmiy, balki ma’naviy va strategik jihatdan ham mustahkam birlikka aylanib borayotganini ko‘rsatdi. Kitob va ezgu amal birlashtirgan millatlarning kelajagi hamisha nurafshondir. Bu ulug‘vor yo‘lda esa kutubxonalarimiz asrlarni asrlarga bog‘lovchi oltin ko‘prik bo‘lib xizmat qilaveradi.



KO‘ZGA KO‘RINMAS XAVF

yoxud bugun dalada qoldirgan plastigimiz ertaga dasturxonimizga qaytishi haqida

Boshlanishi 1-sahifada.

Oddiy qilib aytganda, dalada tashlab ketilgan bir parcha plyonka hech qayoqqa yo‘qolmaydi: u ko‘zga ko‘rinmas ming-minglab zarralarga bo‘linib, tuproq va suvda uzoq saqlanishi, keyin esa oziq-ovqat tizimiga kirib borishi mumkin.

DALADA QOLGAN PLASTIK QAYOQQA KETADI?

Ko‘p fermerda bir xotirjamlik bor: “maydonni yig‘ishtirdim, chiqindini chetga surib qo‘ydim – dala toza”. Aslida esa qishloq xo‘jaligi yerida qolgan plastik bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘ldan harakat qiladi va har biri oxir-oqibat yana insonga qaytishi mumkin.

Birinchi yo‘l – tuproq. Dalada qolgan plyonka, lenta va paket bo‘laklari yerga ishlov berish paytida tuproq bilan aralashadi, chuqurga kirib ketadi va yillar davomida yanada maydalanadi. Qishloq xo‘jaligi tuproqlari plastik ifloslanishining muhim to‘planish joylaridan biriga aylanmoqda. Zarralarning turi, o‘lchami va miqdoriga qarab, ular tuproq tuzilishi, g‘ovakligi, havo va suv harakatiga, shuningdek, unumdorlikni ta’minlaydigan foydali organizmlar hayotiga ta’sir qilishi mumkin.

Ikkinchi yo‘l – suv. Mayda plastik bo‘laklari ariq, kollektor, drenaj va sug‘orish suvi orqali bir daladan ikkinchisiga, undan daryo, ko‘l va yer osti suvlariga tarqalishi mumkin. Demak, bugun sizning dalangizda qolgan bir parcha plastik ertaga qo‘shni maydonga, keyin esa butun suv tizimiga yetib borishi ehtimoldan xoli emas. Hech bir xo‘jalik boshqalardan butunlay ajralib, daxlsiz bo‘lolmaydi.

Uchinchi yo‘l, eng tashvishlisi – o‘simlik va oziq-ovqat zanjiri. Tajriba tadqiqotlari juda mayda zarralar, ayniqsa nanoplastiklar, muayyan sharoitlarda o‘simlikka ildiz yoki barg orqali kirib, boshqa to‘qimalarga o‘tishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Yirikroq mikroplastiklar esa tuproq holati, suv va ozuqa moddalarining o‘zlashtirilishiga ta’sir qilib, o‘simlikka bilvosita zarar yetkazishi mumkin. Real dala sharoitidagi dalillar hali to‘planmoqda, ammo fotosintez, o‘sish va hosil sifatiga ehtimoliy ta’sirning o‘ziyoq bugundan profilaktika choralarini ko‘rish uchun yetarli asosdir.

RAQAMLAR NIMANI AYTMOQDA?

2025-yilda chop etilgan yirik xalqaro tahlilda quruqlik o‘simliklari, chuchuk suv va dengiz suvo‘tlariga oid minglab kuzatuvlar umumlashtirildi. Mualliflar mikroplastik ta’siri fotosintezning taxminan 7–12 foizga pasayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini baholadilar. Shu munosabatlar asosida tuzilgan model asosiy ekinlar bo‘yicha yiliga qariyb 110–361 million tonna ehtimoliy global yo‘qotishni ko‘rsatdi. Ammo bu raqamlar dastlabki ilmiy prognozlar bo‘lishiga qaramay, ular plastik ifloslanishi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi uchun jiddiy masala ekanini isbotlaydi.

Bu faqat hosil masalasi ham emas. Mikroplastik ichimlik suvi, osh tuzi, asal, shakar, ayrim ichimliklar, dengiz mahsulotlari va boshqa oziq-ovqatlarda aniqlangan. Biroq inson qancha zarra yutishi haqidagi hisob-kitoblar juda farq qiladi, chunki ularni aniqlash va o‘lchash usullari hali to‘liq standartlashmagan. Laboratoriya va hayvonlarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda yallig‘lanish, oksidlanish zo‘riqishi va hujayra shikastlanishi kabi ehtimoliy mexanizmlar o‘rganilmoqda. Juda mayda nanoplastiklar biologik to‘siqlardan osonroq o‘tishi mumkin, ammo oziq-ovqatda hozir aniqlanayotgan miqdorlarning inson salomatligiga qanday xavf tug‘dirishi hali qat’iy isbotlangan emas.

Bu noaniqlik vahima qilish uchun emas, lekin befarq qolish uchun ham asos bo‘la olmaydi.



Ibrohim ABDURAHMONOV, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri, akademik

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti – FAO, Yevropa oziq-ovqat xavfsizligi idorasi – EFSA va AQSH Oziq-ovqat va dori vositalari boshqarmasi – FDA bu masalani jiddiy o‘rganmoqda. Ularning ehtiyotkor xulosasi shu: mikro va nanoplastiklar atrof-muhit hamda oziq-ovqat tizimlariga kirib bormoqda, biroq xavf darajasini aniq baholash uchun sifatli tadqiqotlar, yagona o‘lchash usullari va ko‘proq ishonchli ma’lumotlar zarur.

XO‘SH, BUNING BIZGA NIMA ALOQASI BOR?

Kimdir xayolan savol berishi mumkin: “Mikroplastik – dengiz, okean va katta shahar chiqindisining muammosi-ku, bizning quruq dalamizga nima daxli bor?” Aslida, dehqonchilik plastik aylanmasining muhim halqalaridan biridir. Sug‘orish lentasi, mulcha plyonkasi, o‘g‘it va pestisid qadoqlari, urug‘ va ko‘chat idishlari to‘g‘ri yig‘ilmasa, bevosita ifloslanish manbayiga aylanadi. Shu bilan birga, mikroplastik dalaga ifloslangan sug‘orish suvi, kompost va boshqa organik qo‘shimchalar, atmosferadan tushish, oqova, yo‘l va shina changi orqali ham kelishi mumkin.

Men buni hech kimni ayblash uchun aytayotganim yo‘q. Aksincha, bu – bizning qo‘limizda katta imkoniyat borligini anglatadi. Global plastik muammosini hal etish uchun ishonchli yig‘ish infratuzilmasi, ishlab chiqaruvchilar mas’uliyati, qayta ishlash, ilm-fan va aniq siyosat zarur. Ammo har bir xo‘jalik bugunoq oddiy va kam xarajatli birinchi qadamni boshlay oladi: ko‘zga ko‘rinadigan plastik chiqindini dalada qoldirmaslik.

YECHIM ODDIY: EKOLOGIK TOZA DALA

Aynan shu bois, yaqinda biz paxtachilikning sakkiz muhim qonunini e’lon qilganimizda, eng so‘nggisini – sakkizinchi qonunni “Ekologik toza dala” deb atadik. Bu tasodif emas. Ekish, sug‘orish, oziqlantirish, himoya, pishish signali, defoliatsiya va desikatsiya – bularning barchasi muhim agrotexnik qoidalar. Ammo ularning barchasini tojidek yakunlab turadigan qonun – dala madaniyati va mas’uliyatdir. Ekologik toza dala bir vaqtning o‘zida to‘rt narsani: tuproqni, suvni, yetishtirgan hosilimizni va inson salomatligini himoya qiladi.

Xo‘sh, amalda bu nimani anglatadi? Polietilen paket, plyonka va sug‘orish lentasining bo‘laklari tuproqqa aralashib, texnikaga o‘ralib, suv yo‘llarini to‘sishi mumkin. Ularni alohida yig‘ib, maydondan chiqarish va belgilangan qabul, qayta ishlash yoki xavfsiz utilizatsiya yo‘liga topshirish kerak. O‘g‘it va biostimulyator qoplari ish tugashi bilan yig‘ilib, quruq va nazoratli joyda saqlanishi zarur. Plastikdan foydalanish shart bo‘lsa, uzoq xizmat qiladigan, qayta yig‘ish mumkin bo‘lgan va sifat talablariga javob beradigan mahsulotni tanlash lozim. “Parchalanadi” degan har qanday yozuv ham uni dalada qoldirish mumkin degani emas.

Eng katta ehtiyotkorlikni pestisid va gerbisid idishlari talab qiladi. Ularda qolgan modda odam, hayvon, suv va tuproq uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Bunday idishlarni mahsulot yorlig‘idagi ko‘rsatma va amaldagi milliy talablarga muvofiq alohida saqlash hamda vakolatli tartibda topshirish lozim. Kimyoviy vosita idishlaridan suv tashish, oziq-ovqat yoki chorva yemi saqlash, maishiy ehtiyojda foydalanish mutlaqo mumkin emas. Daladagi metall sim, shisha va boshqa qattiq chiqindilar esa ishchi, hayvon va texnikaga shikast yetkazmasligi uchun darhol yig‘ilib, xavfsiz idishga joylanishi kerak.

Bu o‘rinda ikki xato tushunchadan ogoh bo‘lmoq zarur. Birinchisi – “bir parcha plyonkadan nima ham bo‘lardi” deb uni dalada qoldirish. O‘sha bir parcha yillar davomida ko‘plab mayda, barqaror zarralarga aylanishi mumkin. Ikkinchi, undan-da zararli xato – plastikni dalada yoqish. Yoqish muammoni yo‘qotmaydi: u havoga zararli moddalar chiqarishi, kuygan kul va qoldiqni yana tuproqqa tushirishi mumkin. Shuning uchun chiqindini dalada qoldirish, yoqish yoki betartib ko‘mish emas, balki tartibli yig‘ish va tegishli tizimga topshirish to‘g‘ri yo‘ldir.

DALA TOZALIGI – MAVSUMIY EMAS, DOIMIY ISH

Ko‘pchilik dala tozaligini mavsum oxirida bir marta qilinadigan ish deb tasavvur qiladi. Bu yetarli emas. Ekologik toza dala – butun vegetatsiya davomida va barcha fasllarda olib boriladigan doimiy nazoratdir. Fermer uni sug‘orish, o‘g‘itlash yoki o‘simlikni himoya qilish kabi o‘z ishining tabiiy qismi deb qabul qilishi lozim.

Amalda buning tartibi oddiy. Ekishdan avval maydon plastik va qattiq chiqindilardan tozalanadi. Har bir o‘g‘itlash, purkash va sug‘orishdan keyin dala ko‘zdan kechiriladi. Ishchilar va mexanizatorlar uchun chiqindi qoplari yoki qutilari ajratiladi. Agrokimyoviy idishlar boshqa chiqindidan alohida saqlanadi, ariq, kollektor va dala yo‘llariga hech narsa tashlanmaydi. Hosil yig‘ishdan oldin mahsulotga aralashishi mumkin bo‘lgan plastik olib chiqiladi, mavsum so‘ngida esa dala, shiypon va texnika turar joyi to‘liq tozalanadi. Xo‘jalikka qancha plyonka, lenta va qadoq kirgani hamda qanchasi yig‘ib topshirilganini oddiy daftarda qayd etish ham mas’uliyatni oshiradi. Bu ish samarali bo‘lishi uchun tumanlarda qulay qabul nuqtalari va ishonchli tashish tizimi ham yo‘lga qo‘yilishi zarur.

“TOZA DALA CHELLENJI”: BUTUN YURT BOSHLAGAN HARAKAT

Eng quvonarlisi shundaki, bu tashabbus qog‘ozda va shiorda qolib ketmadi. U amaliy, ommaviy harakatga aylandi. 2026-yil iyul oyi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Plastiklardan xoli oy” deb e’lon qilindi va mamlakatimizning barcha hududlarida fermer xo‘jaliklari dala maydonlarini plastik idish, qadoq va boshqa chiqindilardan tozalash ishlarini boshladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda bu harakat “Toza dala chellenji” deb nom oldi. Fermerlar, dehqonlar va soha fidoyilari bir maqsad – toza tuproq, xavfsiz hosil va sog‘lom kelajak uchun birlashmoqda. Yig‘ilgan har bir plastik idish – tuproqda maydalanib ketmaydigan yana bir chiqindi, tozalangan har bir dala esa barqaror qishloq xo‘jaligi va xavfsiz oziq-ovqat sari qo‘shilgan hissadir. Bu tashabbus ko‘z-ko‘z qilish yoki hisobot uchun emas; u tuproqni asrash, yangi mikroplastik ifloslanishning oldini olish va ertangi hosil xavfsizligini ta’minlash uchun chin yurakdan qilinadigan ishdir.

Muammoni fermerga ko‘rinarli qilish uchun hududlardagi qishloq xo‘jaligi mutaxassislari, vazirlik va mahalliy hokimliklarning mas’ul xodimlari ishtirokida oddiy, ammo ta’sirchan amaliy tashabbus taklif etilmoqda: fermer bilan birga uning dalasidagi atigi yigirma kvadrat metr maydonni tozalash va yig‘ilgan barcha chiqindini ko‘z oldida bir joyga to‘plash. Bu yigirma kvadrat metr butun dalani tozalash o‘rnini bosmaydi. Uning maqsadi – shaxsiy namuna ko‘rsatish va fermer har kuni ko‘rib, ko‘nikib qolgani uchun payqamay yurgan plastik miqdorini go‘yo ko‘zguda aks ettirib berishdir. Kichik maydondan chiqqan chiqindi bir joyga yoyib qo‘yilganda, muammo quruq gap emasligi darhol ayon bo‘ladi. Mutaxassis yoki mas’ul rahbar ishni o‘z qo‘li bilan boshlab bersa, bu tanbeh emas, balki amaliy ibrat va hamkorlikka chaqiriq bo‘ladi. Ana shu kichik namoyish fermerni butun dalasini qayta ko‘zdan kechirishga, chiqindini yig‘ishga va tozalikni doimiy odatga aylantirishga undashi kerak.

Shu bois men har bir fermer, dehqon, agronom, agroklaster rahbari, tuman mas’uli va barcha yurtdoshlarimni bu ezgu ishga qo‘shilishga chorlayman. “Toza dala chellenji”ga qo‘shiling, dalangizni tozalang, mehnatingizni surat va videolar orqali boshqalarga ham namuna qiling. Toza dala – faqat majburiyat emas, bu madaniyat. U fermerning yerga hurmatini, o‘z mehnatiga mas’uliyatini va kelajak avlod oldidagi vijdonini ko‘rsatadi.

KELAJAKKA UMID: ILM YECHIM HAM IZLAYAPTI

Suhbatimizni xavf-u xavotir bilan yakunlagim kelmaydi. Insoniyat har qanday muammoga duch kelganda, uning chorasini ham izlaydi. Mikro va nanoplastik masalasida ham dunyo ilmi umid uyg‘otadigan biologik yo‘nalishlarni o‘rgana boshladi.

2026-yilda Koreya Respublikasidagi Jahon Kimchi instituti bilan bog‘liq olimlar kimchidan ajratib olingan Leuconostoc mesenteroides CBA3656 nomli sut kislotali bakteriyani o‘rgandilar. U laboratoriyaning oddiy sharoitida tajribada qo‘llangan polistirol nanoplastiklarining taxminan 87 foizini o‘ziga bog‘ladi. Inson ichagiga o‘xshatilgan sharoitda esa bog‘lash ko‘rsatkichi qariyb 57 foizni tashkil etdi. Maxsus sichqonlardagi tajribalarda, bakteriya bilan oziqlantirilgan tajriba guruhlari bakteriyasiz oziqlangan nazorat guruhiga qaraganda ikki barobardan ko‘proq nanoplastikni tabiiy yo‘l bilan chiqargan.

Albatta, bu natija bilan qoniqish hosil qilish mumkin emas. Tadqiqot bitta bakteriya shtammi, bitta turdagi polistirol nanoplastigi, nazorat qilingan laboratoriya sharoiti va mikrobsiz sichqonlarda o‘tkazildi – insonlarda emas. U kimchi yeyish inson tanasidan mikroplastikni chiqarib yuboradi, deb isbotlamaydi; zarralarning ko‘proq chiqarilishi to‘qimalarda to‘planishni to‘xtatishi yoki salomatlikka foyda keltirishini ham hali ko‘rsatgan emas. Hali inson ishtirokidagi tadqiqotlar va boshqa plastik turlari bilan kengroq tajribalar olib borish zarur. Shunga qaramay, bu ish kelajak izlanishlari uchun ilmiy asoslangan yo‘nalishni ko‘rsatadi. Bu nimani anglatadi? Ayrim oziq-ovqatdan olingan mikroorganizmlar kelajakda ichakdagi muayyan ifloslantiruvchilarni bog‘lab, ularning chiqarilishiga yordam beradigan biologik vositaga aylanishi mumkin.

Bu yerda eng muhim saboq bor: tabiat bizga yechim topishda yordam berishi mumkin, ammo avvalo biz o‘zimiz oldini olish mumkin bo‘lgan ifloslanishni to‘xtatishimiz shart. Foydali bakteriya kelajakda ichakdagi oz miqdordagi zarrani bog‘lashi mumkindir, lekin u butun dalaga sochilgan plastikni tozalab bermaydi. Dalaning tozaligi hamisha inson mas’uliyatiga bog‘liq.

TOZA DALA – TOZA DASTURXON

Mikroplastik – bizga notanish, bizdan uzoqdagi, begona muammo emas, balki shundoq yonimizdagi muammo. Plastik zarralari dunyo bo‘ylab tuproq, suv va oziq-ovqat tizimlarida aniqlanmoqda. Ammo yechimning bir qismi ham bizdan yiroqda emas: u har bir xo‘jalikning kundalik odatida, har bir dalaning chetida va har bir chiqindiga qanday munosabatda bo‘lishimizda yashiringan.

Dunyo ilmi bir vaqtning o‘zida ham ogohlantirmoqda, ham umid bermoqda. Ogohlantirishi – plastik ifloslanishi tuproq vazifalarini buzishi, o‘simlikka xalaqit berishi va oziq-ovqat zanjiriga kirishi mumkin. Umidi – profilaktika, yaxshi chiqindi boshqaruvi, innovatsiya va kelajakdagi biologik usullar zararni kamaytirishga yordam beradi. Shu ikki haqiqat orasidagi eng muhim halqa – biz, dehqonlarmiz. Biz dalani toza saqlasak, tuproqni himoya qilamiz; sog‘lom tuproq sifatli hosil beradi; sifatli hosil xavfsizroq dasturxonga, xavfsiz dasturxon esa sog‘lom oilaga xizmat qiladi.


Shuning uchun bugun har bir fermerga bitta sodda, ammo kuchli da’vat tashlayman: dalani toza saqlang. Plastikni dalada qoldirmang, yoqmang va betartib ko‘mmang – uni tizimli yig‘ib, tegishli qabul yoki qayta ishlash punktiga topshiring. “Toza dala chellenji” va “Plastiklardan xoli oy”ni bir mavsumlik kampaniya emas, doimiy odatga aylantiraylik. Bu hosilimiz, yurtimiz salomatligi va kelajak avlod dasturxoni uchun qiladigan eng oddiy, ammo eng oliyjanob ishlarimizdan biridir.

Keling, farzandlarimizga toza tuproq, toza suv va toza dasturxon qoldiraylik!

OLAM OLIMI

Aleksey YEKIMOV

zarra dunyosining ulkan kashshofi



2023-yilgi kimyo bo‘yicha Nobel mukofoti Mungi Bavendi, Luis Bryus va Aleksey Yekimovga “kvant nuqtalarini kashf etgani va sintez qilgani uchun” berildi. Bu safda Yekimov olamshumul kashfiyotlar sari ilk qadamni tashlagani bilan ajralib turadi.

HAYOT YO‘LI

Aleksey Ivanovich Yekimov 1945-yil 28-fevralda Rossiyaning hozirgi Sankt-Peterburg shahrida tug‘ilgan. 1967-yilda Leningrad davlat universitetining fizika fakultetini tamomladi. 1974-yilda A.F.Ioffe nomidagi Leningrad fizika-texnika institutida “Yarimo‘tkazgichlarda zaryad tashuvchilar spinining optik yo‘naltirilishi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 15 yil o‘tib “Yarimo‘tkazgich mikrokristallarida kvant o‘lcham hodisalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

1977-yildan S.I.Vavilov nomidagi Davlat optika institutida ilmiy faoliyat yuritdi. Keyinchalik Nyu-York shahridagi “Nanocrystals Technology” kompaniyasida yetakchi ilmiy xodim sifatida ishladi. Shuningdek, Fransiya, Germaniya va Yaponiyaning nufuzli universitetlari hamda ilmiy markazlarida taklif etilgan professor sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

KASHFIYOTI

Modda zarrachalari nanometr o‘lchamlarigacha kichiklashganda, ularda kvant hodisalari yuzaga keladi. Bunday o‘ta kichik zarrachalar “kvant nuqtalari” deb ataladi. 1981-yilda Aleksey Yekimov rangli shisha tarkibida zarrachalar hajmiga bog‘liq bo‘lgan kvant effektlarini hosil qilishga muvaffaq bo‘ldi. Bunda shishaga rang beruvchi modda sifatida mis xlorid nanozarrachalaridan foydalanilgan. Yekimov ushbu zarrachalar o‘lchami kvant effektlari orqali shishaning rangiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini isbotlab berdi.

FAN VA TURMUSH

Fiziklar nanozarrachalarda kvant effektlari yuzaga kelishi mumkinligini nazariy jihatdan avvaldan bilishgan. Biroq o‘sha davrda bunday o‘ta kichik tuzilmalarni laboratoriyada yaratish imkonsiz deb hisoblanardi.

Yekimovning qattiq jism (shisha) ichida amalga oshirgan ishidan so‘ng, Luis Bryus suyuqlik muhitida erkin harakatlanuvchi nanozarrachalarda ushbu effektni isbotladi. 1993-yilda esa Mungi Bavendi kvant nuqtalarini kimyoviy usulda ishlab chiqarishda inqilob qilib, ularni deyarli nuqsonsiz va mukammal holatda olishga erishdi.

Bugungi kunda ushbu kashfiyot hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Qurilmalar rangining yorqinligini ta’minlovchi QLED televizorlari va monitorlar aynan kvant nuqtalari asosida ishlaydi. Biokimyogarlar va shifokorlar ular yordamida biologik to‘qimalarni (masalan, saraton hujayralarini) xaritalaydi va yuqori aniqlikda vizualizatsiya qiladi.

Istiqbolda ushbu texnologiya moslashuvchan elektronika, yuqori sezuvchanlikka ega o‘ta kichik sensorlar va o‘ta samarali quyosh batareyalari yaratish imkonini beradi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

HIKOYA

BULBUL SUKUTI



Baxtiyor NURIDDIN



– Nimaga yig‘layapsan?

Dabdurustdan berilgan bu savol ulkan bog‘ning chekka bir burchagida, ovloq joydagi kursi chetida omonatgina o‘tirgan qizni seskantirib yubordi. Uning qovoqlari shishib, ko‘zlari qizarib ketgan edi.

– O‘zim... – dedi qiz ovoz kelgan tarafga umidvorlik bilan o‘girilib, hiqillagancha.

Qarshisida barmoqlarida bir dona qirmiz gulg‘uncha ushlab olgan, o‘zini dadil ko‘rsatishga urinayotgan xushbichimgina yigit ko‘ziga juda issiq ko‘rindi. Ammo harchand urinmasin, baribir, taniy olmadi.

– Odam o‘zicha yig‘lamaydi-yu, – yigit unga yanada yaqinlashib, qo‘lidagi gulg‘unchani tinimsiz u yoqdan bu yoqqa aylantirgancha, gapga gap uladi.

– Nimaga yig‘laydi unda?..

– Bilmadim. Buni sendan so‘rash kerak! – dedi yigit hayajonini yashirish uchun zo‘raki kulimsirab.

– Nimam kulgili?! – chimrildi qiz. – Odam yig‘lasa ham birov kuladimi?.. – U shunday deb yana hiqillay boshladi.

– Yig‘lama! Nimaga yig‘laysan? – qizning ko‘z yoshlarini ko‘rib, sarosimaga tushdi yigit.

– O‘zim!..

– Jinnimisan yoki?.. – yigit toqati toq bo‘lib, ovozini biroz balandlatdi.

– Yo‘q.

– Unda gapir, nima bo‘ldi?

– Nima foyda... – xo‘rsindi qiz. – Baribir hech narsani o‘zgartirib bo‘lmaydi.

– Foyda uchun yig‘layotgan bo‘lsang, to‘yguningcha yig‘layver, – dedi yigit piching bilan. Ammo ichida qizga achinsa-da, zardali ohangda: – Hiqillab o‘tiraver. Ko‘p yig‘lasang, ko‘zlaring qorayadi, – deb qo‘shimcha qildi.

– Kim aytgan buni?! – qiz o‘zini masxara qilinayotgandek sezib, asabiylashdi.

– Xalq og‘zaki ijodidan. Sen chalg‘ima, davom etaver. Yig‘la, yig‘layver...

– Yig‘laydigan ahmoq yo‘q! – qiz zarda aralash kaftining orqasi bilan yonoqlarini arta boshladi.

Yigit cho‘ntagidan ro‘molchasini chiqarib, uzatdi. Qiz indamay oldi-da, qatini ochib, yuziga bosdi.

– Endi yig‘lamaysanmi? – so‘radi yigit uning yoniga o‘tirayotib, past ovozda, erkalagandek.

– Yig‘lab bo‘ldim, – dedi qiz ham mayin jilmayib.

– Yaxshi. Ko‘zing o‘zi qora ekan, – dedi yigit qo‘lida aylanaverib biroz uringan gulg‘unchani unga uzatarkan. – O‘zi bu yerda nima qilib o‘tirganding?

– ...

– Mayli, aytging kelmasa, aytmay qo‘ya qol, – dedi yigit hafsalasi qaytganday.

– Baribir tushunmaysiz.

– Kvant fizikasi masalasimi?..

– Sizga qizig‘i yo‘q-ku!

– Nimaga unday deysan? Rosa qiziqdir, balki.

– Siz ham boshqalarga o‘xshab kulyapsiz...

– Kulmadim.

– Kuldingiz.

– Yaxshi, yaxshi. Men bora qolay bo‘lmasa.

– Ketasizmi? – qizning ovozida kutilmagan xavotir sezildi.

– Shunday desa ham bo‘ladi. Har qalay, biroz yupanding, chalg‘iding.

– Meni kuzatib qo‘ymaysizmi?

– Dangalchi ekansan-ku! – yigit kulimsiradi.

– Yigit degani qizga gul bergandan keyin kuzatib qo‘yadi-da, – dedi qiz ishonch bilan boshini ko‘tarib.

– Buni bilmas ekanman.

– Endi bilib oldingiz.

– Xo‘p, mayli, – dedi yigit o‘rnidan qo‘zg‘alib.

– Rozimisiz!? – yana so‘radi qiz, ko‘zlarini tikib. – Faqat siz ham aldamang.

– Iye! Hali seni ko‘pchilik aldaganmi?..

– Shunaqaroq... Hamma aldoqchi, – dedi qiz yuziga og‘ir mung qo‘nib.

So‘ng yigitning oldiga tushib, sekin qadam tashlay boshladi. Yigit indamay uning ortidan ergashdi. “Yurish-turishidan durustgina oilada tarbiya topgani ko‘rinib turibdi... Biroz tantiqroqmikan?” deb o‘yladi u.

Dabdurustdan:

– Aylanmaymizmi? – deb yubordi-yu, yigit o‘z taklifidan o‘zi xijolatga tushdi. Chunki birinchi marta qiz bolaga gap tashlashi edi.

– Qayoqqa boramiz?

– O‘zing nima deysan?

– Charxpalakka chiqaylik! – qiz bolalarcha quvonch bilan chapak chaldi.

– Bo‘pti. Keyin qayiqda suzamiz.

– Xo‘p bo‘ladi. Suvda sayr qilish maza... Lekin ko‘lga tushib ketishdan qo‘rqaman, – dedi qiz biroz junjikib.

Yigit katta ketib qo‘yganidan, cho‘ntagi kasalligidan izza chekib, xavotirga tusha boshladi. Shu orada xayolan vaziyatdan chiqish yo‘lini izlab, qo‘lidagi soatiga qarab oldi.

– Kechgacha hali vaqt bor, – dedi qiz uning harakatini noto‘g‘ri tushunib.

Bog‘ eshigi yonida soatning qadriga yetadigan juhud soatsoz bor. Qulay imkoniyat topsa bo‘lgani – qizni besh-olti daqiqaga yolg‘iz qoldiradi, xolos.

– Sen xavotir olma! – dedi u ko‘zlari mo‘ltirab turgan qizga dadil ohangda.

Charxpalak tomon borisharkan, yo‘l-yo‘lakay muzqaymoq olish uchun to‘xtagan yigitning yengidan qiz tortdi:

– Menga mumkinmas.

– Anginami? – dedi yigit yengil tortib.

Charxpalakka chiqishdi. Eng baland nuqtaga borganda:

– Isming nima? – deb so‘radi qizdan yurak yutib. U ham ko‘p kuttirib o‘tirmay:

– Anora, – dedi beparvogina.

– Chiroyli ism ekan.

– Sizniki-chi?

– Meniki – Botir.

– Juda mos ekan, – deb kuldi qiz qah-qah otib.

– Nimaga kulyapsan?

– Har qalay, umuman cho‘chimaganingizdan bilgan edim botirligingizni.

– Nimadan cho‘chishim kerak edi?

– Qulab tushishdan, – dedi Anora pastga ishora qilib. So‘ng o‘zi qo‘rquvdan biroz qunishib oldi.

Botir ham pastga ko‘z tashladi-yu, beixtiyor yuragi hapriqib ketdi. Ikkovlari ham biroz jim qolishdi. Anora shabada to‘zg‘itgan sochlarini qulog‘i orqasiga yig‘ishga urinib, kutilmaganda past ovozda, mayin xirgoyi boshladi. Ohang Botirga juda tanish, yurakka yaqin edi. Osmoni falaklarda taralayotgan bu so‘zi noaniq tovushlar oqimida u bolalik chog‘larida qolgan unut hidlarni, ranglarni, hatto, ta’mlarni tuyganday bo‘ldi. Marhum oyisining yoqasidan taralgan qalampirmunchoq islari dimog‘iga urilganday ko‘ngli buzilib, ko‘zlariga yosh to‘ldi. Qiz ashulasini to‘xtatmay, ro‘molchani uzatdi. Botir xo‘rsinish bilan mijjalarini artdi:

– Ovozing juda chiroyli... shirin ekan.

Anora indamasdan osmonga tikildi. Oqshomning kulrang pardasi ortida ertaki yulduzlar miltillardi.

– Gapiring, – dedi Anora yulduzlardan ko‘z uzmay.

– Nimani?

– O‘zingiz haqingizda.

– Meni qo‘ya tur. Sen o‘zing to‘g‘ringda gapir, kimsan, nimasan?

– Yaqinda ko‘rasiz. “Bulbulmisan, qumrimisan, namasan?” deng.

– Ko‘rasiz?!.. – taajjublandi Botir.

– Ha! – dedi qiz keskin ohangda. – Faqat keyin qo‘rqib, qochib ketmasangiz bo‘ldi.

– Nimaga qocharkanman? Sen nima... – dedi-yu, Botirning yuragiga noayon g‘ulg‘ula tushdi.

Ular pastga enib, nazoratchi kabina eshigini ochishi bilan Anora sakrab chiqa solib, gavjum odamlar orasiga qarab chopib ketdi. Botir ham beixtiyor unga ergasharkan:

– To‘xta, qayoqqa? – deb baqirdi va ovozini o‘zidan boshqa hech kim eshitmayotganini angladi.

Botir birdan qiz osmonga uchdimi yo yer qa’riga kirdimi, tushuna olmay qoldi. U bir zumda ko‘z o‘ngidan g‘oyib bo‘lgan edi.

Birozdan keyin: “Anora... Anora... Anora!..” degan hayqiriqlar va qarsaklar bog‘ni tutib ketdi. Botirning ro‘parasidagi tomosha sahnasida qo‘lida dutor bilan o‘sha sirli qiz jimgina bosh egib turardi. Botir ko‘zlariga ishonmadi.

Qiz sahna o‘rtasida, oy shu’lasida boshini ko‘tarib, tomoshabinlarga ma’yus termildi.

Xuddi kimnidir izlayotgandek, hayajonli nigohi bilan atrofga birma-bir qarab chiqdi. Botir: “Meni qidiryapti”, deb o‘yladi va odamlar orasidan qo‘llarini baland ko‘tarib, “Shu yerdaman!” degandek ikki-uch marta silkidi. Qiz pinak buzmadi. Aksincha, bir nuqtaga tikilgancha jim turib qoldi. “Meni ko‘rdi”, deb pichirladi yigit.

Shu payt olomon ichidan qiy-chuv ko‘tarildi. Anora ohista dutor chertdi. Kuyga hamohang ravishda yana o‘sha – charxpalakda xirgoyi qilgan – mahzun qo‘shig‘ini ayta boshladi... Shu zahoti atrofga suv quygandek jimjitlik cho‘kdi. Botir negadir o‘zidan xijolat bo‘lib, dovdiragancha atrofga qaradi: ba’zilar ko‘z yoshlarini artib, piqillab yig‘lardi.

Bu qo‘shiq yurakni bunchalar timdalamasa! “Anora, yetar, bas qil!..” deb baqirib yuborgisi keldi uning. Ikki-uch daqiqa oldin shovqin solayotgan olomonning birdan mahzun holga tushib, qo‘shiq ohangiga tebranishi yigitni hayratga soldi.

Birdaniga tomoshabinlar o‘ziga kelib, gulduros qarsaklar bilan shovqin-suron boshlab yuborishdi. Shu damda Botirning xayollari buzilib, o‘ylari chilparchin bo‘lib ketdi. Odamlar orasida nima qilishini bilmay, karaxt bo‘lib qolgandi. Hamma olqishlardi:

– Ano-ora! Ano-ora-aa!! Ano-o-ra!!!

Odamlarga qo‘shilib olqishlashni o‘ziga ep ko‘rmadi. Borib quruq qo‘l bilan tabriklashga esa jur’ati yetmadi. Hayajon ichida olomon orasidan otilib chiqdi. Uni uchratgan o‘sha gulzorga borib, qiyg‘os ochilib yotgan gullardan avaylab bir quchoq terdi. Uzoqroqda gazeta o‘qib o‘tirgan qorovul uni kuzatib turgan ekan. Chol yigitning yoniga kelib, jahl bilan gullarni qo‘lidan tortib oldi. Indamasdan, ularning tikanli shoxchalarini sindira boshladi. “Obbo, – dedi Botir ichida, – aybdormanmi, aybdorman! Nima desa ham chidayman”.

Qorovul gullarni qo‘lidagi gazetasiga o‘rab, chiroyli guldasta yasadi. “Eh, yoshlar-a!” deb ho‘rsinib qo‘ydi-da, yigitga uzatdi. Botir hatto rahmat aytishni ham unutib, shiddat bilan yana ortiga qaytdi. Sahnaning etagiga yetib kelgach taqqa to‘xtadi: Anorani kimlardir qurshovga olib, tergab-koyiyotgan edi. “Pastga tush, betamiz! Hammamizni sharmanda qilding-ku! – deya urishardi ular. – Yana bir marta o‘rtaga chiqsang, otangga oq bo‘lasan!”

Botir tush ko‘rayotganday karaxt borib, guldastani Anoraga tutqazdi. Atrofga xushbo‘y ifor taraldi. Yigit ayni tobda jonini tortiq qilishga ham tayyor edi.

– Rahmat! – dedi Anora, har holda uning lab harakatlari shu so‘zning chamasini berardi.

“Hammasi tugadi, – deb o‘yladi Botir. – Shunday bo‘lgani tuzuk. Endi ajralishsak ham bo‘laveradi”. Quloqlari ostida esa Anoraning charxpalakdagi gaplari jaranglardi.

Ayni paytda go‘yo bu bulbulnafas qizning oldida o‘zi hech kim emasdek tuyuldi.

U odamlar orasidan sekin sirg‘alib chiqib, ravot tomon yurdi. O‘zi istamagan holda qadamlari jadallashdi. Taqdir uni kimga duchor qilganini borgan sari teranroq tushuna boshladi. Qiz – dengiz edi, u – ummon, u – dovul, u – kamalak... Bu mo‘jiza uning hayotini ostin-ustin qilib tashlaydi, oyoq-qo‘lini kishanlaydi, yuragini tilkalaydi, kelajagini to‘zg‘itib yuboradi. Ketib borarkan, shuurida ana shunday vohim ko‘lanka izg‘irdi.

Yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Anoraning ro‘parasida yana qanday paydo bo‘lganini sezmay ham qoldi. Anora!.. Xuddi o‘zi! Nafis oyoqlari bilan mayda qadam tashlab, tovus misol sollanib, nozlanib, u tomon mag‘rur kelardi. Oydin kechada uning qora charos ko‘zlari porlab turar, yigitga sirli tikilardi.

– Qochib qolibsiz-da? – qizning ohangida na gina, na kinoya bor edi.

– O‘zing shuni istaganding-ku.

– Boshqa kuylamayman, – dedi qiz aybdorona bosh egib.

– Nima uchun?! Menga juda yoqdi.

– Unda nimaga ketib qoldingiz?

– Bunchalik mashhurligingni bilmagan ekanman-da.

– Unchalik emas...

– Ular kim edi? – so‘radi Botir boyagina sahna ortida guvohi bo‘lgan o‘sha noxush voqeaga ishora qilib.

– So‘ramang... Yana qochdim, – dedi u ham istamaygina.

– Muxlislaring juda ko‘p ekan.

– Ketmang... Yo meni ham o‘zingiz bilan olib keting!..

– Unday qila olmayman.

– Nimaga?!

– Birinchidan, qonun oldida javob berishni istamayman. Ikkinchidan, o‘zing bilasan, bunaqa ishlarni odatlarimiz ko‘tarmaydi.

– Onam ham shunday deydi.

– Qanday?

– Sahnada kuylashim bizning oilaga to‘g‘ri kelmas ekan. Ajdodlarimiz orasidan hech qachon laparchilar chiqmaganmish...

– Kattalar hamisha haq, ular yaxshi bilishadi. Jahl qilma-da, ularning oldiga qayta qol!

– So‘z beraman, agar siz istasangiz, boshqa hech qachon qo‘shiq aytmayman.

– Keyin, baribir, attang qilsang-chi?

– Hech qachon!

Botir u bilan sayr qilib, allamahalgacha gaplashib yurdi. Anora aslida begona emas ekan. Yuqori ko‘chada yashaydigan katta ammasining qo‘shnisi bo‘lib chiqdi. Yigit uni ilgari maktabda ko‘rganman, deb o‘yladi: ko‘zga issiqligi shundan. Qizning aytishicha, yaqinlari – otasi, aka-ukalari, xullas, hamma-hamma uning qo‘shiq aytishiga qarshi ekan. Endi bo‘lsa Botir ham...

U qiz bilan chamasi bir oylar davomida shunday uchrashib yurdi. Odatlariga ko‘ra, bu vaqt ichida bir-birlarini sinashdi. Anora o‘zini sipo, andishali tutib, tobora yigitga yoqib borardi. Eng qizig‘i, u shuncha vaqt ichida biror marta ham san’at haqida gap ochmadi. Gapida turdi. Shundan so‘ng Botir sovchi qo‘ydi. Anoraning ota-onasi rosa hayron bo‘lishibdi. Sababi, sovchilar eshik qoqib, “qo‘shiqchi” qizlarini so‘rab kelishiga ishonishmagan ekan. Hatto ustiga ustak: “Qizimiz dutor chalib, ashula aytadi. Sal qaysarligi, shaddodligi ham bor. Shuni oldindan bilib qo‘yinglar“, deyishibdi. Borgan sovchilar esa: “Hechqisi yo‘q, o‘zimiz yo‘lga solib olamiz”, deb javob qaytarishibdi.

To‘ydan keyin ham Botirning yaqinlari Anoraning biror marta na qo‘shiq aytganini, na dutor chalganini ko‘rishdi. Hatto uning xirgoyisini ham hech kim eshitmadi. Yil o‘tib, qizaloqli bo‘ldi. Chaqaloq xuddi onasining o‘zginasi edi. Hamma xursand, ayniqsa, Anoraning yaqinlari quvonchdan ichiga sig‘masdi.

Urf-odatlarga ko‘ra, chaqaloq uchun dunyoning bor-budini uyib tashlashdi. Lekin Anoraning o‘zi kundan kunga so‘nib, mung‘ayib borardi. Buni avvaliga yangi tug‘gan ayolning holatiga yo‘yishdi, tez orada o‘tib ketar, deb o‘ylashdi. Ammo unday bo‘lmadi.

– Anora, – derdi yalingannamo Botir. – Bolaga alla ayt, jonim, o‘sha charxpalakdagi qo‘shig‘ingni ayt...

Kelinchak alla o‘rniga ro‘moli bilan og‘zini berkitib, silkinib-silkinib, unsiz yig‘lardi.

Bola bir yoshga yetar-yetmas, Anora yotib qoldi. Uning ruhiyatida xavotirli o‘zgarishlar boshlangan edi. Shifokorlar bemorning chuqur iztirob va tushkunlikka tushganini, unga mutlaqo tinchlik kerakligini aytishardi.

Shifoxonaga ikki-uch mahal qatnab, o‘zi ham ruhan toliqqan Botirning ahvoli Anoradan avlo emas edi. Bir kuni palata tokchasiga omonat o‘tirgancha tomdan tarasha tushgandek:

– Kuylaging kelsa, kuylayver, Anora! – dedi ovozi bo‘g‘ilib.

Xotini javob bermay, devorga o‘girilib oldi.

Tashqariga majhul yo‘l olgan kuyov kiraverishda nevarasini yetaklab olgan qaynonasiga duch keldi.

– Shunday bo‘lishini bilgandim. U azaldan noqisul aql edi, – deb ayol biroz yig‘lab oldi.

– Unday emas. Xudo xohlasa, hali o‘tib ketadi, – dedi Botir ishonch bilan uni tinchlantirishga urinib.

– Gapirsam, gap uqmaydi-ya. Xuddi esi pastdek, meni tanimayapti ham. Qanday qiz edi-ya, – deb ayol yana ayyuhannos soldi.

Qaynonasining gaplaridan Botirning ichi og‘ridi, g‘azabi qaynadi. Lekin lom-mim demadi. Ona ham o‘z bolasini shunday malomat qiladimi, axir?! Qaynona yigitning aft-angoridan jahli chiqqanini sezdi shekilli: “Kulchaoyim, kulcha qizim mening”, deya nevarasini alqab, gapni boshqa yoqqa burdi.

Botir qizchasini yetaklab xonaga qaytib kirib borganda, Anora burchakda tizzalarini quchoqlab, qunishib o‘tirardi. Farzandini ko‘rib, kiprik ham qoqmadi: na sevindi, na quchoq ochdi.

Nihoyat, hafsalasi pir bo‘lgan do‘xtirlar uyga javob berishdi.

* * *

Uyda ham ahvoli o‘nglanmagan Anora qizchasi bilan qiy-chuv qilib, quvlashmachoq o‘ynayotgan Botirga hissiz termilib o‘tiraverardi. Bilganlar “Sabrdan sariq oltin!” deb dalda berishar, bilmaganlar esa “Shu jinnini deb yigitning umri xazon bo‘ldi”, deya attang qilishardi.

Botir bir kuni ularning baxtli kunlarini yodga soluvchi qadrdon buyumlarni – baribarini xotinining atrofiga jamladi. Hatto dutorni ham u yashayotgan xonaga olib kirib, taxmonga ilib qo‘ydi. Erta tongda ilk bor uchrashgan o‘sha gulbog‘ga bordi-da, xuddi birinchi kundagidek bir quchoq gul terib, eski gazetaga chiroyli qilib o‘radi.

Uyiga qaytayotganida, uzoqdan xuddi ancha yillar burun dunyodan o‘tib ketgan buvisining ovozi eshitilgandek bo‘ldi. “Bu ketishda naqd jinni bo‘lib qolaman”, deb o‘yladi yigit xavotirlanib. Yana biroz o‘tib, ovoz onasining tovushiga ham o‘xshab ketdi. Hammasi tanish, hammasi qadrdon... Nihoyat, topdi... Bu Anora edi! U qizchasini allalayotgan edi...

Qadamini tezlatib, hovliga shoshdi. Ostonada opasi to‘sib, to‘xtatdi. Ichkariga kirishga yo‘l bermadi. Ko‘zlarida yosh bilan ukasiga qarab, birdan quchoqlab oldi.

Yigit hammasini tushundi.

– Alla, bolam, alla-yo... Jonim bolam, alla-yo...

Ovoz xuddi ozodlikka talpinib, ko‘ksini qafas simlariga urayotgan qushning nolasiga, shamol yulqiyotgan maysalarning faryodiga o‘xshardi.

– Ayt, Anora! Aytaver! – dedi Botir hayajonini tiya olmay, lablari qaltirab...

BIR OILA TARIXI

Boshlanishi 1-sahifada.

U kishi: “Salomatoy, xafa bo‘lmasangiz, mayli, o‘rgataman”, der ekan. Ikki ovsin opa-singildek nihoyatda ahil-inoq bo‘lishgan ekan.

Ayam qaynonasi Oydinoy bivimiz juda oqila, o‘ktam, gapini o‘tkazadigan ayol bo‘lganini aytardi. 1917-yilda Abduvohid bobomni Soliyaxon ammamning turmush o‘rtog‘i bilan birga bosqinchilar o‘ldirib ketishgan ekan. Dadam o‘shanda buvimning qo‘llarida qirq kunlik chaqaloq bo‘lgan, ammam kelinoyimga uylanib, alohida uy-joy qilib chiqishgach, bordi-keldi aloqalarimiz yana ham mustahkamlandi. Kelinoyim xonadonlariga mehmon bo‘lib borganimizda, doim ochiq chehra bilan samimiy kutib olardi.

1967-yilda Toshkentga filologiya yo‘nalishiga o‘qishga keldim. O‘sha paytda Erkin akamning xonadonida yashadim. Gulchehra kelinoyim go‘zal va xushsurat, nihoyatda orasta, sarishta, dono, xushmuomala ayol edi. U kishidan ko‘p narsa o‘rganganman. Muhammadjon aka bilan turmush



ham to‘rt nafar jo‘jabirday farzandi bilan beva qolgan.

Roziyaxon ayam, o‘zimning ayam, dadam Qo‘qon pedtexnikumini bitirib, maktabda boshlang‘ich sinflarga dars berishgan. Erkin akamning dadasi Cho‘yanboy amakim partorg bo‘lib ishlagan. Cho‘yanboy amakim pedtexnikumni bitirib kelib, dastlab u kishi ham maktabda dars bergan. Tashabbuskorligi, ishga puxtaligini ko‘rgan yuqori tashkilot vakillari amakimni raykomga partorglik lavozimiga tayinlashgan.

Urush boshlangach, ayam sel-sovetda sekretar bo‘lib ishlagan. Cho‘yanboy amakim boshiga o‘q tegib, shuning asorati tufayli urushdan qaytgach, 1944-yilda oilasi bilan birga Toshkentga davolanish uchun kelgan. Erkin akamning tog‘asi Karimboy Saxiboyev Cho‘yanboy amakim bilan qalin do‘st edi. Amakim va Roziyaxon ayam ularning xonadonida yashashgan. Boshga qadalgan oskolkani olishning iloji bo‘lmay, amakimning dardi og‘irlashib Toshkentda vafot etgan. Shu bo‘yi Roziyaxon ayam Erkin akam bilan Toshkentda qolib ketgan. Erkin aka bolaligining ushbu paytlarini “Quyosh maskani” dostonida shunday eslaydi:

Hali yetti yoshga to‘lib-to‘lmasdan,
Onamdan ham qonib eshitmay ertak.
Otamning mehriga to‘yib-to‘ymasdan,
Qo‘sha judolikni ko‘ribdi yurak...
Lekin taqdirimdan norozi bo‘lsam,
Yolg‘iz o‘sdim desam
yo‘q zarra haqqim.
Ona bo‘lib meni quchdi-yu o‘lkam,
Ota bo‘lib boshim siladi xalqim.
Jigar bo‘lib boqdi menga mushfiq ko‘z,
Necha do‘st-yor topdim, necha birodar,
Esim tanib, menga
“Tog‘a” degan so‘z
“Ota” degan so‘zga bo‘ldi barobar.
Uning mehri ila
Umr irmog‘im
Quyildi kattakon hayot nahriga.
Qoldi Oltiariq –
Ota qishlog‘im,
Ona shahrim Toshkent oldi bag‘riga.

Cho‘yanboy amakimning vafotidan so‘ng ham bordi-keldi aloqalarimiz yo‘qolmagan. Toshkentga kelganimizda, albatta Karimboy Saxiboyev xonadoniga Roziyaxon ayam va Erkin akamni ko‘rgani borardik. Biz oilada yetti farzand (5 qiz, 2 o‘g‘il) bo‘lganmiz. Erkin aka Gulchehra qurishimga ham Gulchehra kelinoyim sabab bo‘lgan. ToshDUning kechki bo‘limida o‘qirdim. Muhammadjon aka bizga fors tilidan dars o‘tardi. Negadir, bir necha kun u kishi orqamdan izmaiz kelayotganini payqadim. Bu domla aqldan ozganmi, deya nega orqamdan poylayotganini so‘radim. U kishi:

– Poylayotganim yo‘q, shu yaqin atrofdagi ko‘chada turaman, – dedi.

– Qaysi ko‘cha ekan? – deb qiziqdim.

– Konfet fabrikasining orqasidagi Uriskiy ko‘chasida turaman.

Uyga kelib voqeani kelinoyimga aytib bersam, u kishi: “Ra’noxon, domlangiz sizni yaxshi ko‘rib qolibdi. Uriskiy mahallamiz yaqinidagi ko‘cha emas, shaharning narigi burchagi tomonlardagi ko‘cha”, dedi. Domla har kuni orqamdan kuzatib yurardi. Kelinoyimga: “Anavi, jinni orqamdan hech qolmaydi-ya!” desam, “Ra’noxon, jinnilarni o‘qituvchilikka olishmaydi”, dedi. Bir kuni yana orqamdan ergashib kelganida, darvoza ochiq ekan, kelinoyim: “Keling-keling”, deb kutib olsa, bu kishi ham indamaygina hovlidagi stulga kelib o‘tirib oldi. “Voy!” deganimcha qoldim. Kelinoyim Muhammadjon aka bilan suhbatlashib, meni osh tayyorlashga unnatdi. Osh yeb bo‘lingach, Muhammadjon aka ketdi va kelinoyim “Yomon bolaga o‘xshamayapti”, degan fikrni bildirdi. Erkin akam ham u kishi bilan suhbatlashgach, mashhur olim Shoislom Shomuhammedovdan surishtirdi va dadamga kuyovlikka nomzod sifatida tavsiya etdi. Shunday qilib, biz oila qurdik.

Turmush o‘rtog‘im Leningradga aspiranturaga o‘qishga kirib, ilmiy ish yoqladi. Ancha yillardan beri Sharqshunoslik universitetida dars beradi. Muhammadjon aka Imomnazarov filologiya fanlari doktori, tarixchi, professor. Asosan, Alisher Navoiy davri adabiyoti, o‘rta asrlar tarixi va klassik adabiyot tahlili bilan shug‘ullangan, tadqiqotlarida Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf ilmi keng yoritilgan.

Erkin akam Gulchehra kelinoyim bilan qo‘sh qanot bo‘lib, bir-birlarini ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab baxtiyor yashashdi. Aqlli va o‘qimishli to‘rt farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazishdi, nabira-evaralar ko‘rishdi. Oxiratlari obod bo‘lsin.

Ra’noxon VOHIDOVA



Husayn Boyqaro devonining 1485-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasi.





“Badoyi’ ul-bidoya” devonining 1481-yili ko‘chirilgan qo‘lyozmasidan dastlabki sahifa.

PARIJDAGI MEROSIMIZ



Aftondil ERKINOV,
filologiya fanlari doktori

Boshlanishi 1-sahifada.

E’TIBOR OSHMOQDA

Keyingi yillarda O‘zbekistonning xorijdagi merosi, ayniqsa, qo‘lyozma merosimizni o‘rganishga keng miqyosda kirishildi. Masalan, 2019–2022-yillar mobaynida “O‘zbekistonga oid xorijda saqlanayotgan madaniy boyliklar reyestrini yaratish, nodir qo‘lyozma asarlarning faksimilesini nashr etish” loyihasi doirasida xorijda saqlanayotgan 3000 dan ortiq qo‘lyozma asarlarning qisqa ro‘yxati – reyestri tuzildi va uch jild kitob shaklida chop etildi. Alisher Navoiyning “Badoyi’ ul-bidoya” devonining Istanbulda saqlanayotgan nodir qo‘lyozmasining faksimil nusxasi Turkiyada joylashgan Islom tarixi, san’ati va madaniyati tadqiqot markazi (IRSIKA) tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Taxminiy hisoblarga ko‘ra, xorijdagi qo‘lyozma merosimiz bundan o‘nlab barobar ko‘proq bo‘lib, endilikda ular haqida ma’lumotlar jamlanmoqda.

Albatta, olimlarimiz tomonidan bu masala bo‘yicha hozirga qadar ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Hamma gap shundaki, ayni davrda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Birgina O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilishi, kuni kecha bu yerda I Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumining o‘tkazilishi mamlakatimizda madaniy merosga davlat miqyosida katta ahamiyat berilayotganini ko‘rsatadi.

NODIR QO‘LYOZMALAR

O‘zbekistonga oid madaniy boyliklar dunyoning qaysi mamlakatida bo‘lmasin, o‘zbek ziyolisini qiziqtirishi tabiiy hol. Parijga ilmiy safarim doirasida o‘sha kutubxonalardagi O‘zbekistonga oid qo‘lyozmalarga e’tibor qaratdim. Shahardagi sharqshunoslik yo‘nalishidagi kitoblar jamlangan ikki muhim ma’naviy markaz – Fransiya milliy kutubxonasi hamda Tillar va sivilizatsiyalar universiteti kutubxonasida yurtimizga oid qo‘lyozmalar saqlanar ekan. Ushbu yo‘nalishdagi kichik qadam sifatida mazkur dargohlarga yo‘l oldik.

Mumtoz o‘zbek, arab va fors tillarida arab yozuvida o‘lkamizga oid ko‘plab asarlar bitilgan. Shaxsan meni turkiyshunos olim sifatida eski turkiy tilidagi qo‘lyozmalar ko‘proq qiziqtiradi. Shunday qilib, izlanishlarni Tillar va sivilizatsiyalar universitetidan boshladim. Mazkur ilm dargohi, mohiyatan, Sharqshunoslik universiteti degan nomga to‘g‘ri keladi hamda unda bizning mintaqa tillari, jumladan, o‘zbek tili ham o‘qitiladi. O‘quv dargohi kutubxonasida turkiy tillarda 282 ta qo‘lyozma saqlanib, shundan taxminan ellikta atrofidagi qo‘lyozma mumtoz o‘zbek tilida yozilgan ekan.

Afsuski, bu yerda ushbu manbalar uchun alohida fond mavjud emas. Yevropadagi ko‘plab qo‘lyozma to‘plamlarida bo‘lgani kabi mumtoz o‘zbek tilidagi asarlar an’anaviy ravishda “turk qo‘lyozmalari” nomi ostida keladi va ayni atama bilan mumtoz o‘zbek tili, usmonli turkcha hamda boshqa turkiy tillar birlashtirib berilaveradi. Shu bois, bu asarlarning muallif va mazmunini aniqlash uchun har bir qo‘lyozmani alohida ko‘rib chiqish talab etiladi. Bunga esa imkoniyat cheklangan. Mazkur universitet kutubxonasida Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Abulg‘oziy Bahodirxon kabi mashhur mualliflar asarlarining qo‘lyozmalari mavjudligini bildik, albatta, ular o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Umuman olganda, bu o‘lkada arab yozuvidagi qo‘lyozmalar miqdori katta ekani ma’lum bo‘ldi. Masalan, Fransiya milliy kutubxonasi Yevropada arab yozuvidagi qo‘lyozmalarning dunyodagi eng yirik kolleksiyalaridan biriga ega. Garchi qo‘lyozmalarning aniq soni yangi kelib tushayotgan asarlar va kataloglardagi tuzatishlar sababli o‘zgarib tursada, kutubxona va sohaga oid akademik kataloglar ma’lumotlariga ko‘ra, arab yozuvidagi asosiy fondlar hajmi taxminan quyidagicha: arab tilidagi fondda 7 ming 280 ta, fors tilida 2 ming 600 ta, turkiy fondda taxminan 2 ming 40 ta qo‘lyozma saqlanadi. Shunday qilib, arab yozuvidagi qo‘lyozmalarning umumiy soni taxminan 12 mingga yaqin.

Tabiiyki, Fransiya milliy kutubxonasida o‘lkamizga oid bir qator nodir qo‘lyozmalar mavjud. Ular haqida ma’lumotlar berilgan. Masalan, “Me’rojnoma”ni qayd etish mumkin. Alisher Navoiyning 1481-yili ko‘chirilgan “Badoyi’ ul-bidoya” devoni, Husayn Mirzoning 1485-yili Hirotda mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan devoni hamda 1836-yili Qo‘qon xoni Muhammadalixonga atab maxsus ko‘chirilgan she’riy to‘plamning ahamiyatli jihati shundaki, bu uch qo‘lyozma mualliflar hayotligida qog‘ozga tushirilgan.

Yana ta’kidlash kerakki, “Badoyi’ ul-bidoya”ning nodir nusxalaridan biri Parijdagi milliy kutubxonada “Supl. turc 746” raqami ostida saqlanmoqda. Nusxaning tarkibidan debocha va devon o‘rin olgan. Ushbu nusxaning ko‘chirilish sanasi hijriy 885-yil shavvol oyiga (1480-yil dekabr – 1481-yil yanvar oylariga) to‘g‘ri keladi. Ko‘chiruvchisi noma’lum. O‘lchami: 25x18 sm. Matnning o‘lchami: 16x11 sm. Dastlab Edvard Bloshening katalogida tavsiflangan ushbu qo‘lyozma o‘tgan asrning 60-yillarida professor Hamid Sulaymonov tomonidan jiddiy tahlilga tortilgan va “Badoyi’ ul-bidoya” devonining eng qadimiy nusxasi sifatida fanga ma’lum qilingan.

O‘tgan yillarda navoiyshunos olima Oysara Madaliyeva ushbu qo‘lyozma xususiyatlari borasida “Adabiy meros” jurnalida maqola e’lon qildi. Muallifning sinchiklab o‘rganishi natijasida mazkur nusxaning ko‘chiruvchisi Alisher Navoiyning shaxsiy kotibi Abduljamil bo‘lishi mumkinligi faraz qilingan. Shuningdek, maqolada manba hozirgacha ma’lum bo‘lgan boshqa qadimiy nusxalari tarkibi bilan qiyosiy o‘rganilayotgani ayon bo‘ladi. Shunisi quvonarliki, 2025-yili olima Fransiya milliy kutubxonasiga maxsus kelib, qo‘lyozmani sinchiklab o‘rgandi va doktorlik dissertatsiyasi yozishga kirishdi.

“Badoyi’ ul-bidoya”ning Alisher Navoiy hayotligi davrida ko‘chirilgan, hozirgacha aniqlangan qo‘lyozmalari soni sakkizta bo‘lib, Parij nusxasi ilk qo‘lyozma hisoblanadi. U mazkur devonning debocha matni bilan ko‘chirilgani, shuningdek, tarkibida g‘azal janridagi she’rlarning miqdori ko‘pligi bilan alohida ahamiyatga ega. Parij nusxasi tarkibida 1480-yildan keyin ko‘chirilgan “Badoyi’ ul-bidoya” qo‘lyozmalariga ko‘ra beshta janrdagi she’rlarning uchramasligi esa Navoiy she’riy laboratoriyasi tadrijiyligi haqida tasavvur qilish imkonini beradi, deyish mumkin.

2000-yillar boshida Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan, 1836-yili Qo‘qon xoni Muhammadalixon saroyida ko‘chirilgan, uning va Abdurahmon Jomiy, kotib Dabirning she’rlari kiritilgan qo‘lyozma bilan tanishgandim. Bu haqda fransuz va o‘zbek tillarida bir nechta maqola e’lon qildim. Mazkur qo‘lyozma Muhammadalixon davridagi o‘zbek mumtoz adabiyoti va Qo‘qon xonligida Temuriylar adabiy muhitiga taqlid qilishga urinish hamda ayni saroy madaniyati haqida ma’lumot berish jihatidan muhim ahamiyatga ega edi.

Oradan yigirma yil o‘tib, Parijda bo‘lganimda mazkur “qadrdon” qo‘lyozmani yana bir ko‘rishni istadim. Ammo bu safar Muhammadalixon qo‘lyozmasiga nodir manba sifatida o‘ziga xos munosabatda bo‘lishdi: tanishish uchun uni menga berishsa-da, uni o‘ta noyob hisoblab, meni alohida stolga o‘tkazishdi. Qo‘lyozmani bo‘lim xodimi nazorati ostida o‘qidim. 20 yil avval qo‘limga bemalol tutqazishgan bu qo‘lyozma endi o‘ta nodir nusxaga aylanganidan xursand bo‘ldim. Kutubxonaning mazkur qo‘lyozmaga munosabati jiddiylashishiga balki mening maqolam sabab bo‘lgandir? Shunday bo‘lsa, xursand bo‘lardim. Lekin dunyoda, jumladan, o‘zimizda ham qo‘lyozmalarga, umuman, xalqimiz merosiga e’tibor ortib borayotgani bor gap.

“MUSOFIR” MEROSIMIZ KELAJAGI

Ilmiy safar doirasida Fransiya milliy kutubxonasi fondidagi o‘lkamizga oid qo‘lyozmalar haqida batafsil ma’lumot olishga urindik. 2024-2025-yillarda turkiy tildagi qo‘lyozmalar tarkibini batafsil o‘rganish, qayta identifikatsiya qilish bo‘yicha maxsus loyiha boshlangan. Mazkur kutubxona turkiy qo‘lyozmalar bo‘limi ilmiy xodimi, turkiyshunos doktor Lamin Tamssaout hozirda kutubxonadagi turkiy qo‘lyozmalar fehrestini tuzish ustida ish olib bormoqda. U avval



mumtoz o‘zbek tilida deb hisoblanmagan oltmishga yaqin qo‘lyozmani aniqlagan. Tamssaout kutubxona fondlarida saqlanayotgan sharqiy turkiy, ya’ni, mumtoz o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalarni aniqlash va ilmiy kataloglashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy loyihani amalga oshirmoqda. Olim Fransiya milliy kutubxonasidagi mumtoz o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalar tarkibi haqida shunday deydi:

“Fransiya Milliy kutubxonasi o‘z fondlarida 2 ming 40 dan ortiq turkiy qo‘lyozmalarni saqlab kelmoqda. Ushbu boy majmua turkiy tillar tarixining turli davrlari va geografik hududlarini qamrab oluvchi dialektal xilma-xillikni yaqqol namoyon etadi. To‘plam tarkibiga g‘arbiy turkiy (o‘g‘uz) lahjalarida hamda sharqiy turkiy lahjalarda bitilgan qo‘lyozmalar kiradi. Ayniqsa, sharqiy turkiy deb ataluvchi mumtoz o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalar o‘zining adabiy, tilshunoslik va badiiy qiymati bilan milliy kutubxonamizning turkiy fondida alohida o‘rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘limning eski kataloglarida mumtoz o‘zbek tilida yozilgan atigi 76 ta qo‘lyozma qayd etilgan edi. Biroq tadqiqotlar natijasida arab, fors va turkiy fondlar orasida tarqoq holda saqlanayotgan jami 160 dan ortiq sharqiy turkiy qo‘lyozmalar aniqlangan.

Mazkur qo‘lyozmalar mavzularining rang-barangligi bilan sharqiy turkiy xalqlarning intellektual va madaniy merosini aks ettiruvchi noyob ilmiy mozaikani tashkil etadi. To‘plam tarkibiga IX asrga oid eski uyg‘ur tilidagi Pelliot fondining eng qadimiy matnlari, XIII-XIV asrlarga mansub Xorazm turkiysida yozilgan “Muqaddimat ul-Adab” va “Kitob al-Afol” kabi asarlar, shuningdek, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Muhammad Xoyi, Muhammad Vajih ad-Din, Ahmad Yassaviy, Umar Boqiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur singari yirik mutafakkir va adiblarning asarlarini o‘z ichiga olgan mumtoz o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalarning boy majmuasi kiradi”.

Doktor Tamssaoutning tadqiqotlari ko‘rsatishicha, Fransiya milliy kutubxonasining Sharq qo‘lyozmalari fondlari islom va turkiy dunyoning turli hududlari o‘rtasidagi qo‘lyozmalar almashinuvi va tarqalishi natijasida bosqichma-bosqich boyib borgan. Bu holat ayrim qo‘lyozmalarga mutlaqo noyoblik xususiyatini bag‘ishlagan. Eng muhim kashfiyotlar qatoriga Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarining hozircha ma’lum bo‘lgan eng qadimgi parcha nusxasi, Bobur xatida bitilgan avtograf izohlar hamda 1542-yilga mansub “Abushqa” lug‘atining eng qadimgi nusxasi kiradi.

Sharqiy turkiy qo‘lyozmalarning Fransiya milliy kutubxonasi fondlariga qachon kelib tushgani yoki dastlabki xarid sanalarini aniq belgilash hozircha mushkuldir. Shunga qaramay, eng qadimgi qo‘lyozmalarning kutubxona fondlariga XVII asrda kelib tushganini taxmin qilish mumkin. Jumladan, 1642-yilda sayyoh Raviusning Istanbulda bo‘lgan davrida amalga oshirilgan xaridlar eng qadimgi manbalar sirasiga kiradi. Keyinchalik Denis de La Haye-Vantelet (taxminan 1650-yil), sayyoh va olimlar Marsel Alepensis, Ankuyetil-Duperronning Hindistonga safarlari davomida to‘plagan qo‘lyozmalari hamda Charlz Sheferning nihoyatda boy kolleksiyasi ushbu fondlarning sezilarli darajada kengayishiga xizmat qilgan.

Shunday qilib, bugungi kunda Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan mumtoz o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalar sonini an’anaviy ravishda ko‘rsatilgan yuzga yaqin qo‘lyozma bilan cheklab bo‘lmaydi. Doktor Tamssaout ta’kidlaganidek, yangi qo‘lyozmalarni aniqlash uchun kutubxonaning barcha Sharq fondlarini tizimli ravishda qayta ko‘rib chiqish zarur, chunki ularda hali aniqlanmagan ko‘plab sharqiy turkiy qo‘lyozmalar mavjud bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Aynan mana shu yondashuv doktor Lamin Tamssaout tadqiqotlarining eng muhim va o‘ziga xos jihatlaridan biri bo‘lib, Fransiya milliy kutubxonasi Sharq qo‘lyozmalari fondlarini har tomonlama o‘rganish orqali sharqiy turkiy xalqlarning yetarlicha tadqiq etilmagan til, adabiyot va intellektual merosini ilmiy muomalaga kiritishga xizmat qilmoqda.

Parij, 2026-yil.



Kangul kishisi

Milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan taniqli shoir va tarjimon Ikrom Otamurod 75 yoshida vafot etdi.

Ikrom Otamurod 1951-yili Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi Kasbi qishlog‘ida tug‘ildi. O‘rta maktabni tugatganidan so‘ng Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ni jurnalist mutaxassisligi bo‘yicha tamomladi.

Mehnat faoliyatini nashriyotda muharrir sifatida boshlab, keyinchalik uzoq yillar “Sharq yulduzi” adabiy-badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy jurnalida adabiy xodim, bo‘lim mudiri lavozimlarida xizmat qildi. Mazkur tahririyatdagi 51 yillik faoliyati davomida nazm olamining minglab durdonalarini o‘quvchilar qo‘liga yetib borishi yo‘lida zahmat chekdi, yuzlab yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlab, katta adabiyotga kirib kelishi uchun oq yo‘l ochib berdi.

Shoirning “Vaqt ranglari”, “Janub qushlari”, “To‘rg‘ayli manzillar”, “Ufqlar orti bepoyon”, “Uzoqlashayotgan og‘riq” she’riy kitoblari 80-yillar adabiy hayotida muhim voqea bo‘ldi.

90-yillardan boshlab uning she’riyatida lirik-falsafiy yo‘nalish ustuvorlik kasb etdi. “Sopol siniqlari”, “Sen”, “Ruhimning qayg‘usi”, “Ichkari va tashqari”, “Istarim”, “Ko‘nglim o‘zing”, “Tavr”, “Tanazzul”, “Xaritaga tushmagan joy”, “Muqaddar”, “Yobondagi yolg‘iz daraxt”, “Qush”, “Huviyyat”, “Ruhiyatning tarjimayi holi”, “Hijron imtihoni” kabi nazmiy kitoblari va dostonlarida shoirning betakror badiiy usuli va ijodiy mahorati e’tiborni tortadi.

Shoirning “O‘zi bo‘lib yashagan kunlar taniydi Haqni”, degan satri ana shunday falsafiy qarashlar mahsuli bo‘lib, Ikrom Otamurod bir umr o‘zi bo‘lib yashadi, o‘zgalarga o‘xshashni istamadi.

Ikrom Otamurod falastinlik shoir Muin Bsisuga bag‘ishlangan “Yarador umid otlari” (1986) dostonini yozar ekan, unda nafaqat bir millat dardini kuylaydi, balki jahon xalqlariga tinchlik, farovonlik va taraqqiy sog‘inadi. Bu orqali tafakkur sarhadi ikki daryo orasidan umumjahon miqyosiga kengayadi. Doston umumbashariy muammolarga javoban Shoir qalbining aks sadosi bo‘lib yangraydi.

Ikrom Otamurod ijodi deganda xayolga “kangul” so‘zi keladi beixtiyor. Darhaqiqat, adib ko‘ngil odami edi, qalbi dayro shoir edi.

U jahon adabiyotidan Uolt Uitmen, Pablo Neruda, Yevgeniy Yevtushenko, O‘ljas Sulaymon kabi katta ijodkorlarning she’r va dostonlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Ikrom Otamurodning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni hamda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

Taniqli shoir, yoshlarning mehribon ustozi, samimiy va kamtarin inson Ikrom Otamurodning yorqin xotirasi qalbimizda hamisha saqlanib qoladi.

“Jadid” gazetasi tahririyati va muassislar

KUZATUV

IMTIHONDAN KEYINGI O‘YLAR



Sherzodxon QUDRATXO‘JA, O‘zJOKU rektori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Har yili yoz fasli men uchun jo‘shqin va mas’uliyatli pallaga aylanadi. Chunki bu paytda universitetimizga katta orzu-umid va maqsadlar bilan yuzlab yoshlar qadam qo‘yadi. Ular bilan yuzma-yuz suhbatlashish, fikrlash tarzi, dunyoqarashi, qiziqishlari va orzularini tinglash menga har safar bir haqiqatni anglatadi – har bir avlod o‘z zamonasining farzandi.

Ijodiy imtihonlar men uchun doimo qiziq, chunki 18-20 yashar avlod bilan erkin suhbat qilish imkoniyati ichimdagi ko‘p savollarga javob topishga yordam beradi. Yangi avlod qanday? Ular media olamni nega tanladilar? AT va SI bilan aloqalari qanaqa? Matbuot va badiiy adabiyotga qiziqishlari bormi? Xullas, yillar davomida o‘ylab yurgan savollarimga javob olaman, ularga qo‘shilib men ham hayajonlanaman...

Men uchun ijodiy imtihonlarning eng muhim natijasi kimningdir xatosini topish emas, balki kelajak haqida o‘ylashdir. Chunki bu auditoriyalarda o‘tirgan yoshlar orasida ertangi muxbir ham, tahlilchi ham, bosh muharrir ham, media menejeri ham, xalqaro jurnalist ham bor. Ayrimlari bizni savolga tutganida ularning mustaqil fikrini his qilaman, bu mushohada zamirida yurtimizning ertangi intellektual salohiyatini ko‘raman. Shuning uchun ham, har bir ijodiy imtihon men uchun oddiy saralash jarayoni emas, balki avlodlar uchrashuvi, kecha bilan bugunning muloqoti, ertangi kun bilan yuzma-yuz suhbatdir. Albatta, ustoz sifatida bugungi yoshlarga ishonaman. Chunki ular orasida bilimli, kitobxon, dunyoqarashi keng va chinakam iqtidor egalari juda ko‘p.

Bu yilgi ijodiy imtihonlarda mingta kitob mutolaa qilgan Azizaxon ismli abituriyentimiz ko‘plab ustozlarni hayratga soldi. Jahon adabiyoti durdonalarini o‘qib, Telegram sahifalarida mushohadalarini tengdoshlariga ulashayotgan kitobxon yoshlarimizni ko‘rib faxrlandik, niyat qildikki, ular albatta bizning talabamiz bo‘lishsin. Hali o‘qishga kirmasdan turib, viloyat va Respublika televideniyesida boshlovchi sifatida faoliyat yuritayotgan, ravon nutqqa, keng mushohada va erkin fikrga, dadil qarashlarga, dublyaj sohasida betakror iqtidorga ega (dublyaj sohasida faoliyat yuritayotgan, bir vaqtning o‘zida ovozini o‘zgartira oladigan yoshlarni ham ko‘rdik) havasmandlar bilan zavqlanib suhbatlashdik. Ana shunday navnihollarni ko‘rib, jurnalistikaning ertangi kuniga ishonchimiz ortdi.

Ammo har bir quvonchli manzaraning o‘ylantiruvchi tomoni ham bo‘lar ekan... Afsuski, jurnalistika ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan ayrim yoshlar jurnalist, teleboshlovchi va bloger o‘rtasidagi farqni aniq tushuntirib bera olmadi. Aksariyati jurnalist deganda mashhur tok-shou boshlovchilarini nomma-nom keltirdi. Bu esa kasbning mohiyati hali to‘liq anglanmaganini ko‘rsatadi. Axir jurnalistika faqatgina mikrofon va kamera qarshisida biyron gapirish san’ati emas. Aslo! Agar shunday bo‘lganda, eng yaxshi jurnalistlar eng mashhur chehralar bo‘lardi.



TALABA JURNALISTGA

G‘unchaga gul bo‘lib
ochilmoq uchun
Maktab yaratmabdi
qodiri g‘affor.
Senda-chi, gazet bor
ham dorilfunun,
Agar ochilmasang –
o‘zingsan aybdor.

Abdulla ORIPOV

Jurnalistikaning oltin qoidasi bor: haqiqatni aytmoq uchun avvalo uni anglash kerak. Shuning uchun jurnalistning eng katta quroli mikrofon emas, bilim, eng ishonchli tayanchi kamera emas, tafakkurdir. Mikrofon ovozni kuchaytiradi, ammo bilim va tafakkurgina so‘zga salmoq, fikrga qudrat bag‘ishlaydi.

Suhbat jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadigan abituriyentlar asosan Instagram va TikTokdagi ko‘ngilochar kontentlarni kuzatishini aytdi. Biroq ijtimoiy-siyosiy fikrlar, tahliliy maqolalar va jamoatchilik muhokamalari joylashtiriladigan Facebook (Meta)dagi muhit ular uchun deyarli begona. Axir bo‘lg‘usi jurnalist uchun ijtimoiy tarmoq vaqt o‘tkazish vositasi emas, jamiyat kayfiyatini anglash, fikrlar xilma-xilligini kuzatish va tahlil qilish maydoni bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlar haqidagi bunday suhbatlarda yana bir ziddiyat namoyon bo‘ldiki, axborot ko‘paygan sari uni anglashga bo‘lgan ehtiyoj emas, ba’zan uni tez iste’mol qilish istagi ustun kelayotgandek.

Imtihon jarayonida yana bir ziddiyatli jihatga duch keldik: yozishga iqtidori, mustaqil fikri va qalami bor ayrim qizlarimiz shaxsiy ijodiy sahifa yuritish istagini bildirganida, ota-onalarining qarshiligiga duch kelayotgan ekan. Nega? Axir iqtidor bu ta’qiqlanadigan, yashirib qo‘yiladigan ne’mat emas, tarbiya va ishonch bilan kamolga yetkaziladigan Yaratganning omonatidir. Agar yo‘li to‘silaversa, iste’dod so‘nadi, agar unga ishonch bildirilsa, u millatning ma’naviy boyligiga aylanadi. Albatta, ota-onaning farzandini raqamli texnologiyalarga mukka ketishidan asrash istagini tushunish mumkin. Biroq himoya qilish degani uning iqtidorini yashirish emas, aksincha, uni odob, mas’uliyat va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, to‘g‘ri yo‘lga boshlashdir. Zero, Vatanning ertangi so‘zi ham, nufuzi ham ana shunday erkin fikrlaydigan, ma’naviyati mustahkam yoshlar qalamida yaratiladi.

Eng qiziq va ayni paytda eng o‘ylantirgan suhbatlar kitoblar haqida, adabiyot haqida kechdi.

Afsuski, sun’iy intellektga fikrlash salohiyatini ham topshirgan ba’zi yoshlar uchun badiiy asarning mohiyatini bilish emas, shunchaki nima haqida ekanligini bilsam bo‘ldi, degan yondashuv muhimligi imtihon jarayonida ma’lum bo‘ldi.

Bo‘lajak talabalar bilan suhbat asnosida o‘tgan asr yakunidagi talabalik yillarimizni, ustozlarimizni esladim. Biz axborotni asosan kitoblardan, gazetalardan, jurnallardan izlardik. Kutubxonaga borishning o‘zi bir ma’naviy ehtiyoj edi. Bugungi yoshlar esa mutlaqo boshqa axborot makonida ulg‘aymoqda. Ularning qo‘lida cheksiz imkoniyatlar mujassam. Bir necha soniyada dunyoning istalgan nuqtasidagi ma’lumotga erishishi mumkin. Demak, muammo texnologiyada emas.

Umuman, bugungi avlodni kechagi avlod bilan taqqoslashdan ko‘ra, ularning har biri qaysi muhitda shakllanganini tushunish muhimroq. Zamon o‘zgarmoqda, axborot oqimi tezlashmoqda, ta’lim usullari ham takomillashib bormoqda. Tabiiyki, bu o‘zgarishlar natijasida farzandlarimizda kitobga muhabbatni, savol berish madaniyatini, mustaqil mushohada qilish qobiliyatini saqlab qolishimiz, yo‘qotib qo‘ymasligimiz lozim. Bu yo‘lda oila, maktab, universitet va butun jamiyat hamkor bo‘lishi kerak.

Azizlar, farzandlarimizni faqat imtihonga emas, hayot sinovlariga tayyorlaylik! Ularga faqat javob berishni emas, mulohaza yuritishni ham o‘rgataylik. Faqat diplomni emas, teran dunyoqarashni qadrlaylik. Faqat axborotni emas, haqiqatni izlashga undaylik. Ana shunda ta’lim maskanlarimizdan nafaqat a’lochilar, balki mas’uliyatli ziyolilar va Vatan taqdiriga daxldor insonlar yetishib chiqadi. Buning uchun barchamiz birdek mas’ulmiz!

JAHON AYVONIDA

IXTIYORIY O‘LIMGA RUXSAT

Fransiya Milliy assambleyasi og‘ir va bedavo kasalliklarga chalingan bemorlar uchun hayotdan ko‘z yumishga ko‘maklashish (evtanaziya) huquqini joriy etuvchi qonunni ma’qulladi. Bu haqda “Le Monde” xabar berdi.



Ushbu huquqdan Fransiya fuqaroligiga ega yoki mamlakatda doimiy yashaydigan voyaga yetgan bemorlargina foydalana oladi. Amaliyot faqat og‘ir xasta, jismoniy yoki ruhiy azob chekayotgan va bu og‘riqlarini yengillashtirishning imkoni bo‘lmagan odamlarda qo‘llanadi. Bemorning qarori mutlaqo ixtiyoriy, ongli bo‘lishi va shifokorlar ko‘rigidan keyin ham bir necha bor tasdiqlanishi kerak. Fransiyada evtanaziya uchun o‘limga olib keladigan dorilar beriladi.

UYSIZ QOLGAN PREZIDENT

Janubiy Koreya prezidenti Li Je Myong o‘zining kvartirasini sotdi va endi uyi yo‘qligini aytdi. Bu haqda “Yonhap” xabar berdi.

Prezident fevral oyida ko‘chmas mulk bozorini barqarorlashtirish bo‘yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlariga jamoatchilik ishonchini oshirish maqsadida uyini sotuvga



qo‘ygan. Ko‘chmas mulk Seul yaqinidagi Sonnam shahrida joylashgan.

“Endi mening uyim yo‘q”, deya Li Je Myongning uy-joy siyosati bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishida aytgan so‘zlarini keltiradi “Yonhap”.

MALAYZIYADA DEPORTATSIYA MASALASI

Malayziya hukumati Johor shtatidagi “Forest City” hududida joylashgan “Network School” raqamli ko‘chmanchilar hamjamiyatida isroilliklar bor-yo‘qligini tekshirmoqda.



Agar taftish davomida ularning ishtiroki tasdiqlansa, ushbu shaxslar zudlik bilan mamlakatdan chiqarib yuboriladi. Bu haqda Malayziya bosh vaziri Anvar Ibrohim ma’lum qildi.

Bosh vazirning ta’kidlashicha, Malayziya Isroil davlatini tan olmaydi. Hozirda tegishli organlar mazkur dasturda Isroil fuqarolari qatnashayotgani haqidagi xabarlarni o‘rganmoqda.

ROSSIYALIK SAYYOHLAR HIBSGA OLINDI

Turkiyada huquq-tartibot idoralari rossiyalik er-xotinni Ayo Sofiya masjidida Injil o‘qigani sababli hibsga oldi. Bu haqda “Meduza” xabar berdi.



Qo‘lga olinganlar Moskvadan Turkiyaga ta’tilga kelgan er-xotin: 35 yoshli Viktoriya va 32 yoshli Igordir. Ular 14-iyul kuni Istanbulning eng diqqatga sazovor joylaridan biri bo‘lgan Ayo Sofiya masjidiga borgan. U yerda Igor o‘zi bilan birga olib kelgan Injil kitobini chiqarib, o‘qiy boshlagan.

Er-xotinning so‘zlariga ko‘ra, ularni darhol odamlar o‘rab olgan va masjiddan tashqariga olib chiqib ketgan. Shundan so‘ng ular Fotih tumanidagi politsiya bo‘limiga olib borilgan. Istanbul politsiyasi hibsni tasdiqlagan. Rossiyaliklarning aytishicha, tuzilgan bayonnomada ular “aholi o‘rtasida adovat yoki dushmanlik qo‘zg‘atish”da gumon qilinayotgani yozilgan.

TARIXDAN SADO

“ATTANG,

Buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning publitsistik asarlari o‘zining qamrovi va keskinligi bilan jadid jurnalistikasida alohida ajralib turadi. Xususan, “Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 4-noyabrda chop etilgan “Bizda askarlik masalasi” maqolasi ana shunday o‘z vaqtida aytilgan jasoratli fikrlar majmuidir. Maqolada shunday satrlar bor: *“Boshqalar tarafindan huquqingning toptalmovi, chetlarga mahkum, mazlum bo‘lmaslik, chet millatlarga o‘z tovushingni eshitdirub, eshitmoqqa majbur etuvg‘a shubha yo‘qkim, qo‘lingdagi qurolingg‘a, askariy kuchingga qarab bo‘lur”.*

Qodiriy “chetlarga mahkum, mazlum bo‘lmaslik... qo‘lingdagi qurolingg‘a, askariy kuchingga qarab” belgilanishini to‘g‘ri anglab yetmayotgan zamondoshlariga yuzlanadi. Hurriyatga erishsa-da, “og‘zig‘a quyulg‘on tayyor oshni ham eblab” icha olmayotgan millatning ahvolidan kuyinadi.

Ma’lumki, 1917-yildagi inqiloblardan keyin Turkistonda hokimiyat uchun kurash davri boshlandi. Sovetlar Toshkentda o‘z hukumatini o‘rnatdi, lekin mahalliy musulmon aholi manfaatlari hisobga olinmadi. Xalqning diniy-milliy qadriyatlari poymol etilgach, ziyolilar orasida norozilik kayfiyati ortib, milliy mustaqillik istagi kuchaydi. 1917-yil 18–26-oktyabrda Toshkentda musulmon harbiylari qurultoyi o‘tkazildi. Jadidlar va boshqa ziyolilar siyosiy jihatdan faollashib, Turkistonning o‘z-o‘zini boshqarish g‘oyasini ilgari surdi.

Mustamaka siyosatini ko‘zlagan sovetlar o‘z mavqeyini saqlab qolish uchun barcha choralarni qo‘llay boshladi. Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan “Ishchi milisiyasi to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Hukumat zimmasiga ishchi militsiyasini zarur texnika vositalari va qurol-yarog‘ bilan ta’minlash vazifasi yuklatildi. Turkistonda ham mustabid tuzumni himoya qilish uchun ishchi-dehqon militsiyasi tashkil etildi. Lekin sovetlar harbiy sohada kadrlar masalasiga juda hushyor bo‘lib, mahalliy aholiga qurol berishni, armiya tarkibiga olishni qattiq nazorat qilardi.

Turkiston hukumati endigina tashkil topgan vaqtiyoq milliy qo‘shin masalasi muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etgan. Harbiy qudrat tashvishi doim jadidlarning e’tibor markazida bo‘lgan. Turkiston muxtoriyati talablarida milliy armiyani tashkillashtirish ilgari suriladi. “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1917-yil 8-dekabr sonida yozilishicha, “Turkiston muxtoriyatining moliya ishlarin ta’sis qilurg‘a kirishuv, xalq milisiyasi vujudga keltiruvchi hamda Turkistonda yerlashgan millatlarning huquqlarin saqlov uchun tegishli tadbirlar qiluv (askar tashkil qiluv)” nazarda tutiladi.

Muxtoriyat talabida Turkistonning mustaqil milliy armiyasi va bayrog‘iga

MILLAT FIDOYILARI

MEHNATGA TUHMAT

Saidg‘ani Abduqayumov 1884-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘n sakkiz yoshida rus-tuzem maktabini a’lo baholar bilan tamomlagan. Bu paytda yangicha bilimli yoshlarga xususiy savdo firmalarining eshigi ochiq edi. U ham tengdoshlari kabi mehnat faoliyatini ishchi sifatida boshlaydi. 1905-yil kuzagidagi inqilobiy namoyishlar va tartibsizliklar guvohi, hatto, ishtirokchisiga aylanadi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1906-yilda “E.Sindel” firmasiga ishga kiradi. Eng gullagan yoshlik chog‘i shu yerda o‘tadi. 1911–1917-yillarda Xitoyning Sinszyan o‘lkasida – Xami, Xoshan, Urumchi, Qoshg‘ar, G‘ulja va Chuguchak shaharlarida bo‘ladi, u yerdagi firma idoralarida ishlaydi. Bu yillar uni chiniqtirdi: savdo ishlarining ichki qoidalari, iqtisodiy munosabatlar va moliyaviy hisob-kitoblarni puxta egalladi.

1917-yilgi Oktyabr voqealaridan keyin Saidg‘ani Abduqayumovning davlat va jamoat ishlaridagi faolligi yanada kuchaydi. 1917-1918-yillarda Toshkentda sovet xodimlari ittifoqini tashkil etishda qatnashib, uning raisi bo‘ldi. Ayni vaqtda Toshkent shahar deputatlari soveti ijroiya qo‘mitasi apparati a’zosi sifatida faoliyat yuritdi. 1918-yili kooperativ raisi, 1919-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent ijroiya qo‘mitasining oziq-ovqat bo‘limi mudiri, iyul oyidan 1920-yil oktyabriga qadar esa kommunal xo‘jalik bo‘limi mudiri vazifalarida ishladi.

1920-yildan boshlab ish faoliyati moliya tizimi bilan chambarchas bog‘landi. Avvaliga Sirdaryo viloyati moliya bo‘limi raisi etib tayinlandi. Bir vaqtda viloyat ijroiya qo‘mitasi a’zosi, Toshkent sovet xodimlari kasaba uyushmasining xazinachisi, Toshkent Eski shahar ijroiya qo‘mitasi a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Ko‘p o‘tmay Eski shahar partiya qo‘mitasining mas’ul kotibi, so‘ngra 1921-yil iyuniga qadar Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari lavozimlarida mehnat qildi.

So‘ng yana Sirdaryoga qaytarilib, viloyat ishchi-dehqon inspeksiyasi mudirligiga qo‘yildi. Turkiston ASSR Moliya xalq komissarligi hay’ati a’zoligini ham gardaniga yuklashdi. Shundan keyin qisqa muddatlarda Turkiston Moliya xalq komissarligi Markaziy soliq boshqarmasi rahbari, Turkiston qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi raisi o‘rinbosari, Moliya xalq komissarligi hay’ati a’zosi, Turkiston Respublikasi Kooperatsiya ittifoqi prezidiumi a’zosi va moliya qismi mudiri bo‘ldi.

1923-yildan Saidg‘ani Abduqayumovning faoliyati Buxoroga tomon yo‘nalib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) moliya noziriga o‘rinbosar, birinchi o‘rinbosar, bir yil o‘tmay moliya noziri etib



tayinlanadi. U davlat byudjeti, soliq siyosati, moliyaviy nazorat, davlat muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlash hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ishlariga rahbarlik qiladi. Fuqarolar urushi, inflyatsiya, ishlab chiqarishning pasayishi va yangi davlat tizimi shakllanayotgan bir sharoitda moliya sohasini boshqarish katta tajriba va mas’uliyat talab qilardi. Shu ma’noda, yosh respublika iqtisodiy barqarorligini ta’minlashdagi xizmatlari unga davlat arbobi rutbasini ham berar edi.

1924-1925-yillarda u Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni amalga oshirish komissiyasi tarkibida ishladi. Jarayon yakunlangach, 1925–1927-yillarda Tojikiston SSR Moliya xalq komissari lavozimiga tayinlandi. 1933-yilda O‘zbekistonga chaqirib olinib, Aloqa xalq komissarligi tizimiga o‘tkazildi. Ammo bu yillarda Vatanga qaytganlarning birortasi baraka topmadi. Chunki sovet davlatining qatag‘on mashinasi murvatlari tish qayrab, harakatga kela boshlagandi. Sovetlar har qanday yuksak xizmatga ham, martabali obro‘ga ham tupurgan, Stalin malaylari qo‘llariga “xalq dushmani” yorlig‘ini tutganicha, birin-ketin millat elitasining peshonasiga yopishtirish payiga tushgandi.

1937-yil 4-dekabr. S.Abduqayumovga nisbatan O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi xodimi jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqida qaror qabul qiladi. Hujjatdagi asosiy ayblov shunday edi: “1923–1925-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi moliya noziri bo‘lib ishlagan vaqtida “Milliy ittihod” aksilinqilobiy millatchi tashkiloti a’zosi bo‘lgan hamda xorijiy davlatlardan biri manfaati yo‘lida josuslik faoliyati bilan shug‘ullangan”. U ertasigayoq №26/20-sonli order asosida Toshkent shahri Dmitrov ko‘chasidagi 3-uyda hibsga olinadi.

Tergovning dastlabki kunlaridanoq Saidg‘ani Abduqayumovning barcha ko‘rsatgan xizmatlari axlat qutisiga uloqtirilib, qariyb yigirma yil avvalgi siyosiy qarashlari va aloqalari kun tartibiga qo‘yiladi. Tergovchilar uni avvalo “Milliy ittihod” tashkiloti bilan bog‘lashga urinadi. Shundan so‘ng kimlar bilan yaqin munosabatda bo‘lganini aniqlashga kirishadi. U Fayzulla Xo‘jayev, Muhiddin Tursunxo‘jayev, Sa’dulla Tursunxo‘jayev, Porso Xo‘jayev, Qori Yo‘ldosh Po‘latov va Munavvar qori Abdurashidov kabi davlat va jamoat arboblarini yaxshi taniganini, ular bilan xizmat munosabatlarida bo‘lganini bildiradi. Tergov bayonnomasida bu shaxslarning keyinchalik “aksilinqilobchi millatchilar” sifatida fosh etilgani alohida ta’kidlanadi. Qatag‘on davrining eng mudhish jihatlaridan biri ham shu ediki, kechagina davlat ishonchiga sazovor bo‘lgan, birga xizmat qilgan rahbarlarning nomlari tergovchilar qo‘lida bir-biriga qarshi soxta ayblovning “isbot”iga aylantirilardi.

Tergov materiallarining keyingi sahifalarida so‘z 1918-yil voqealariga buriladi. Saidg‘ani Abduqayumov o‘sha davrda eserlar partiyasi safida bo‘lgani, partiya topshirig‘i bilan bolsheviklarning qurolli guruhlarini qurolsizlantirish ishlarida qatnashganini bayon qiladi. Hatto, telefon stansiyasini qo‘riqlayotgan 10-15 nafar bolshevikni qurolsizlantirganini ham tan oladi. Stalincha tergov uchun esa vaqt va tarixiy sharoitning ahamiyati yo‘q edi. Qariyb yigirma yil avvalgi voqealar ham inson taqdirini hal qiluvchi “dalil”ga aylantirilar, kechagi siyosiy kurash sahnalari esa bugun “aksilinqilobiy jinoyat” sifatida talqin etilardi. Uning ko‘rsatmalari ham xuddi shu tarzda o‘ziga qarshi qurolga aylantirildi. Bundan tashqari, u Xitoy konsulligi bilan noqonuniy aloqada bo‘lgani, konsullik xodimlari bilan yig‘ilishlar tashkil etgani, ushbu uchrashuvlarda sovet hokimiyati siyosatini qoralagani va kelgusi urushda uning mag‘lub bo‘lishini bashorat qilgani bayon qilinadi.

1936-yilga oid ayblovlarda esa Abduqayumov o‘z mahallasi aholisi orasida aksilinqilobiy, tuhmatomuz targ‘ibot olib borgani, Sovet Ittifoqida ocharchilik va vayronagarchilik haqida provokatsion mish-mishlar tarqatgani, sovet hokimiyati siyosati milliy respublikalardagi xalqlarni yo‘q qilishga qaratilgan deb baholagani hamda Fayzulla Xo‘jayevni maqtagani ko‘rsatilgan. Ayblov xulosasi yakunida Saidg‘ani Abduqayumov qurol va 159 dona o‘q-dorini noqonuniy saqlaganlikda ham ayblangan. Unga nisbatan O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasiga ko‘ra ayblov ilgari surilgan va jinoyat ishi Ichki ishlar xalq komissarligining maxsus “uchligi”ga yuborilgan. 1938-yil 4-fevralda 54 yoshli Saidg‘ani Abduqayumov 10 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Afsuski, uning keyingi taqdiri haqida arxiv hujjatlarida hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan. Ayanchli jihati, bir umr mehnat qilgan odamning xizmatlari jaholat sababli yana mehnat bilan “taqdirlandi”.

“Yovuzlik hamisha shafqatsizlik va zaiflikdan kelib chiqadi”, degan gap bor. Shafqatsiz tuzum kuchli bo‘lgani uchun emas, aksincha, zaifligi ortidan, haqiqatdan qo‘rqqani uchun oydinlarni qatag‘on qildi. Vaqt esa soxta ayblovlarni chetga uloqtirib, haqiqatlarni yuzaga chiqarayotir. Saidg‘ani Abduqayumovning nomi ham ana shu haqiqatlar bilan birga o‘zimizga qaytdi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Qalandar Devonaboyev – 1890-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Andijondagi musulmon kommunistlariga yetakchilik qilgan. 1918-yildan sovet idoralarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan.

1920-yil 10–23-mayda Andijonda Markazdan kelgan “Qizil Sharq” nomli targ‘ibot poyezdi xodimlari tomonidan hibsga olingan. 1921-yili aksilinqilobiy harakatda ayblanib, sud-so‘roqsiz otib tashlangan.

Zokirjon Nasriddinov – 1904-yili Shahrixonda tug‘ilgan. Savdogarlik bilan shug‘ullangan. “Jadid” tashkiloti a’zosi bo‘lgach partiyadan o‘chirilib, qishloq soveti raisligidan ham bo‘shatilgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan.

Aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlik, xalq dushmanlarini maqtaganlik, SSSRdagi ocharchilik to‘g‘risida mish-mish tarqatganlik, qishloq xo‘jaligida “zararkunandalik” qilganlik, paxta terimi bo‘yicha sabotaj qilib, 1937-yilgi paxta rejasini barbod etganlikda ayblangan.

O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 7-fevraldagi yig‘ilishi qaroriga ko‘ra otuvga hukm qilingan.

Qudratulla Yunusov – 1896-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Butunittifoq kitob palatasida turk-tatar tillari bo‘yicha tarjimon, katta bibliograf bo‘lgan. Ma’lumoti oliy.

1937-yil 27-avgustda Davlat xavfsizligi komiteti tomonidan “Turk adami markaziyati”, “Ittihod va taraqqiy” va “Milliy ittihod” tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatgani uchun hibsga olingan.

“Milliy istiqlol”ning Moskvadagi filiali faol a’zosi bo‘lganlikda, sovet apparatini yot unsurlar bilan to‘ldirish, tashkilot a’zolarini rahbarlik lavozimlariga qo‘yish, 1931–1937-yillarda Moskvada o‘zbek talabalarini millatchilik ruhida tarbiyalash va yangi alfavit komitetida “zararkunandalik” bilan shug‘ullanganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 63-, 58-, 64-moddalari bilan hibsga olingan.

SSSR Oliy sudining 1938-yil 5-oktyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan sayyor sessiyasida otuvga hukm etilgan.

1957-yil 1-avgustda reabilitatsiya qilingan.

Saidnosir Mirjalilov – 1884-yili Turkiston shahrida tug‘ilgan. O‘z zamonasining ilg‘or kishilaridan bo‘lgan. Toshkentga kelgach, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, aka-uka Norbekovlar, Abdulhamid Cho‘lpon bilan yaqin munosabatda bo‘lgan. Turkiston shahrida birinchi bor jadid maktabini ochgan.

1914–1917-yillarda Turkistondagi ko‘zga ko‘ringan boy va savdogarlardan biri sifatida mashhur bo‘lgan. Turkiston shahar dumasi a’zosi. Saidnosir Mirjalilov ikki yuz ming rubldan ortiq sarmoyasini Turkiston muxtoriyati hukumati uchun hadya qilgan, muxtoriyat xazinachisi bo‘lgan.

1925-yil 12-dekabrda Toshkent shahar Tarnovboshi mahallasidagi xonadonida hibsga olingan. Solovesk orollariga surgun etilgan. Uch yillik qamoq muddatini o‘taganidan keyin 1932-yili yana besh yil muddatga qamalgan. 1937-yil 22-iyulida takroran hibsga olinib, o‘sha yilning 25-oktyabrida otilgan.

Ahmadjon Abdusaidov – 1878-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Jadidlik harakati” va “Yosh buxoroliklar” firqasi namoyandalaridan biri, davlat va jamoat arbobi bo‘lgan. 1911–1913-yillarda Istanbulda tahsil olgan. 1920-yilda Buxoro revkomi raisi, keyinroq Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi mas’ul kotibi bo‘lgan.

Siyosiy faoliyatini to‘xtatib, maktabda o‘qituvchilik qilgan hamda badiiy ijod va publitsistika bilan jiddiy shug‘ullangan. Hamdiy taxallusi ostida she’rlar bitgan.

1937-yil 9-oktyabrda sovet rejimi tomonidan Toshkentda qamoqqa olinib, 14-oktyabrda Bo‘zsuv sohilidagi jarlikda 59 yoshida otib tashlangan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

SHUNISI CHAKKI...”



Sanobar TO‘LAGANOVA

ega bo‘lishi muhim sanalgan. Ubaydulla Xo‘jayev harbiy ishlar bo‘yicha vazir bo‘lib tayinlangan. O‘sha vaqtda e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, “Ushbu yanvarning to‘qqizida Ho‘qandda Turkiston muxtoriyati hukumatining askarina manyovr yasalg‘an. Bir ming qadar musulmon askar tuzulgan ekan, hammasi mulla Abdurazzoqboyning bog‘iga yig‘ilganlar. Hukumat a’zolaridan harbiya noziri Abdullaxo‘jayev ila moliya noziri Islom Shoahmedov borib askarni tabrik qilg‘onlar. Otashli nutqlar so‘zlag‘onlar. Bu manyovrdan so‘ng, naq bir mingga yaqin askar yig‘ilib, hozir muvaqqat hukumat qaramog‘ida ikki ming qadar muntazam milliy armiya bor ekan” (“Ulug‘ Turkiston”, 1918-yil 21-yanvar). Demak, ixtiyoriy ravishda xizmatga bel bog‘laganlar soni ikki mingga yaqin bo‘lgan.

Muxtoriyat vahshiylarcha qonga botirilgandan keyin hukumat nazoratni yanada kuchaytirdi. Xalqqa nisbatan o‘tkazilgan ommaviy qirg‘in ko‘ngilli qo‘shin orasida norozilikni oshirdi. Bunday qarshilik alaloqibat milliy ozodlik harakatining pishib yetilishiga zamin hozirladi.

Abdulla Qodiriy o‘z maqolasida vaziyatni boy bermaslik va kurashni to‘xtatmaslik uchun ham milliy qo‘shin zaruriyati haqida alohida to‘xtaladi. Maqola matniga diqqat qaratsak, muallif musulmonlarning haq-huquqlarini himoya qilish masalasini ilgari suradi: “Biz musulmon mehnatkashlari buyuk O‘ktabr inqilobidan so‘ng hurriyatni, istiqlolni yana egallash ila boshladik. O‘zimiz uchun mahkumiyatdan qutulib yashovning mumkinligini sezdik. Boshlab qo‘ldan ketgan huquqlarimiz o‘z qo‘limizga qaytib kira boshladi. So‘ngg‘i vaqtlarda vatanimiz bo‘lgan Turkiston idorasi hammasi bo‘lmasa ham yarmisi deyarlik o‘z yigitlarimiz qo‘lig‘a o‘tdi”. Muxtoriyat qo‘ldan ketgandan so‘ng ham Turkiston idoralarining “yarmisi deyarlik o‘z yigitlarimiz qo‘lig‘a o‘tdi” deyish mumkinmi?

Inqilobdan keyingi yillar millat ziyolilari boshqaruvda mahalliy aholi bo‘lishining tarafdori edi. Bu yerda hali qo‘ldan batamom ketmagan Turkiston mustaqilligi masalasi haqida so‘z boradi. Chunki, bu paytda sovetlar hali hokimiyatni to‘la qo‘lga olib bo‘lmagan, siyosiy-inqilobiy ichki kurashlar kuchayib ketgan edi. Milliy ozodlik harakati o‘lkaning turli burchaklarida tinimsiz suratda davom etardi. Mamlakatda bunday harbiy harakatlar yuz berayotgan pallada milliy armiyani tuzish to‘g‘risida fikr yuritishning o‘zi xatarli va qaltis edi, albatta. Ammo muallif o‘z fikrlarini qat’iyat bilan aytadi. Nazarimizda, adib bu kabi dolzarb maqolalarida o‘zining ijtimoiy-siyosiy vaziyatga nisbatan qarashlarini pardalamasdan, ochiq-oshkora ifoda etavergan.

Maqolada qo‘shni afg‘on xalqicha bo‘la olmagan turkistonliklarning ahvoli juda achinarli ekaniga ishora qilinadi. Zero, Afg‘oniston amiri Omonulloxon 1919-yil 28-fevralda Afg‘onistonni mustaqil deb e’lon qilgan, 1919–1928-yillarda mamlakatda qoloqlikni bartaraf qilish va ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir qancha islohotlarni amalga oshirgan edi. Muallif afg‘onlar mustaqil bo‘lgan vaqtdagi Turkistonning siyosiy ahvolidan shikoyat qiladi. Bunga sabab, birinchi navbatda o‘zimizda g‘ayrat va shijoat yetishmasligi, deydi.

Maqolada Yevropa va Amerika mamlakatlari o‘zlarining harbiy salohiyati bilan shuhrat qozongani e’tirof etilib, bizning milliy armiyamiz yo‘qligiga diqqat qaratiladi. Shu sabab Turkiston mustamlaka va qoloq o‘lkaga aylanib borayotgani tanqid qilinadi. Muallif chor mustamlakasi olib borgan noto‘g‘ri siyosat tufayli mahalliy aholi qo‘rqoq va qaram bo‘lib qolganiga ishora qilib, har bir mustaqil davlatning o‘z milliy qo‘shini bo‘lmog‘i lozimligi, “istiqlol olib, askarsiz yashamoq butunlay mumkin emas”ligi haqida fikr yuritadi.

Maqola oxirida muallif niyatini ochiqlaydi. “Musulmonlardan ko‘ngilli askar yig‘moq Turkiston o‘zbak ishchilar hayotini ta’min va chetlar tarafindan toptalgan huquqini tirgizu degan so‘zdir”. Murojaatnoma shunday tugaydi: “Musulmonlarning o‘zidan askariy muallimlar yetkuzmak uchun kurslar ochib, shu kundan e’tiboran Eski shahar sinfiy ittifoqlari sho‘rosiga bir nafar o‘z harbiy vakilini doimiy etib tushursun”.

Abdulla Qodiriy harbiy qudrat haqida keyinchalik ham fikr bildirgan. Xususan, bosqinchilarga qarshi janglarda ishtirok etgan otasi Qodirmuhammad bobo haqida yozilgan “Otam va bolshevik” (1922) hikoyasida go‘yo sodda otasidan beozorgina kulmoqchiday tuyulsa-da, aslida, muammoning bizga ko‘rinmagan boshqa tarafiga e’tibor qaratadi.

“– Xudoning xohlagani-da, kofirning qo‘lida qolib ketdik... O‘zimizda g‘ayrat yo‘q. Agar yurt bir og‘izga tupurub, yarog‘ topolmag‘anda ham qora kaltak bo‘lub chiqsa, isni-biska qo‘ymas edi...”

“– Tuzuk, tuzuk, ko‘b yaxshi. Bolshevoying odamoxun ekan, sarbozdan kel, sarbozdan. O‘zimizdan sarbozlar bormi?

– Bor, lekin bo‘lsa ham yo‘q hisobda.

– Attang, shunisi chakki ekan...”

Bobo o‘zi harbiy bo‘lganidan mahalliy aholidan askarlarning bo‘lishi siyosiy-iqtisodiy jihatdan muhimligini tajribada ko‘rgan, buni his-tuyg‘uga berilmay aqli bilan anglab yetadi, afsus chekib, alamli o‘kinadi.

Biz so‘z yuritayotgan maqolada milliy qo‘shin masalasini hal qilish orqali Turkistonning mustaqil va qudratli bo‘lishi mumkinligi asosiy g‘oya sifatida ilgari surilgan. Maqola muhim siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ega fikrlarni jamlagani uchun bugun ham ahamiyatini yo‘qotmagan.

ZOMIN – 2026

Do‘stlik anjumani

Bu yil hayotim va ijodimda yangi sahifa ochildi. Chunki O‘zbekistonda an’anaviy o‘tkaziladigan yosh ijodkorlarning Zomin seminariga ilk bor taklif etildik. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan anjumanda ishtirok etish biz – dunyoning turli nuqtalarida yashaydigan va o‘zbek tilida ijod qiladigan vatandoshlarning ko‘nglini osmon qadar yuksaltirdi.



Seminarda O‘zbekistonning barcha hududidan saralangan ijodkorlar bilan birga mashg‘ulotlarda qatnashdik. Shu chog‘gacha asarlari yoki ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari orqali tanish bo‘lgan adib va shoirlar bilan yuzma-yuz uchrashdik. Zamonaviy adabiyot, bugungi o‘quvchining talab va takliflari, sun’iy intellekt va she’riyat kabi mavzularda fikr almashdik, qimmatli maslahatlar oldik. Tadbirlar yakunida telefon xotirasida ikki yuzdan oshiq yangi raqam paydo bo‘ldi.

Zominga vatandosh ijodkorlarni taklif etish g‘oyasi juda yaxshi bo‘libdi. Chunki o‘z davlatimizga qaytganimizdan keyin o‘zbek adabiyotini targ‘ib-tashviq etish, o‘zbek tilida yaratilgan asarlarni boshqa tillarga tarjima qilish, ayni paytda boshqa tillardagi eng yaxshi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish uchun yanada ko‘proq harakat qilamiz.

Mening e’tiborimni, ayniqsa, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” asari va uning asosidagi sahna ko‘rinishi tortdi. Yangi asar haqida internetda o‘qigan edim. Ammo muallif bilan uchrashish boshqacha kayfiyat bag‘ishladi.

Biz romanda tilga olingan ajdodlarga munosib avlod, munosib izdosh bo‘lib, ularning g‘oyalarini davom ettirishimiz kerak. Zero, jadidlar harakati faqat milliy yoki mintaqaviy emas, balki jahoniy harakatdir. Shu paytgacha ma’rifatdan biron xalq zarar ko‘rmagan.

Biz, vatandosh ijodkorlar bundan keyin aloqalarimizni yanada jipslashtirishga, shuningdek, do‘st O‘zbekiston bilan rishtani yanada mustahkamlashga kelishib oldik. Buning uchun bizni birlashtirgan Zomin seminari tashkilotchilaridan minnatdormiz.

O‘zbekistondan tashqarida yashayotgan o‘zbeklar uchun ma’naviy ozuqa manbalaridan biri “Jadid” gazetasi ekanini e’tirof etmoqchiman. Biz tushimizga ham kirmagan ma’lumotlarni, zo‘r-zo‘r maqolalarni shu gazeta saytidan o‘qib bormoqdamiz. Bundan keyin o‘zimiz ham tahririyatga maqolalarimiz, asarlarimizni yubormoqchimiz.

Men biror-bir xorijiy safardan kitobsiz qaytmaganman. Va bu gal eng quvonarlisi, nodir bir boylik – “Jadid” gazetasida yil davomida chop etilgan eng yaxshi maqolalar to‘plamini qo‘lga kiritdim. “Tilda, fikrda, ishda birlik!” deb nomlangan bu yilnomani kitob do‘konlaridan topib bo‘lmasligi aniq. Ana shunday xazinani qo‘lga kiritib, ko‘tarinki ruh bilan yurtimizga qaytyapmiz. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining bunday xayrli ishlari bardavom bo‘lsin!

Ozod MELIBOYEV,
Zomin seminari ishtirokchisi,
Tojikiston Respublikasi



G‘aroyib sir

– Asalim, ona qizim,
Tillaring buncha shirin?
Bol tomar har so‘zingdan
Aytgin-chi, buning sirin.

– Rostin aytsam, oyijon,
Shirin bo‘lsin tilim deb,
Uydagi konfetlarning
Barisini qo‘ydim yeb.

Dilnavoz ALIBAYEVA,
Zomin seminari ishtirokchisi
Qashqadaryo viloyati

Evrilish

Namxush sabo silar yuzimni,
bulbullarning nolasida dod.
Qo‘llarimda go‘zal guldasta,
chorlar edi begona hayot.

Bu yo‘llardan boraveribman,
his qilmabman qaytmas ekanin.
Nogahonda safsar gulining
yuragimga botdi tikani.

Bir lahzaga evrildi borliq,
Bog‘da edim, xayolim giryon.
Gul deb tutsam quyosh rangida
Qo‘llarimdan to‘kildi xazon.



Bobomurod RAHMATULLAYEV,
Zomin seminari ishtirokchisi
Qirg‘iziston Respublikasi

YANGI NASHR

TAJRIBA MAHSULI

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida “Jamiyat rivojida tahliliy janrlarning o‘rni (sport jurnalistikasi misolida uslubiy qo‘llanma)” asari nashr etildi. Kitob muallifi jurnalistika sohasida qariyb ellik yillik tajribaga ega bo‘lgan taniqli ijodkor O‘ktam Mirzayordir.

“Ushbu uslubiy qo‘llanmani ishlab chiqish xayoli ancha vaqtdan buyon fikr-u zikrimni band etib kelayotgan edi, – deb yozadi muallif. – O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisining o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritgan davrimda uyushma qoshida “Yosh jurnalistlar klubi”ni tashkil etganimiz va endilikda bu g‘oyalarni amaliyotga kiritish istagi kaminaga turtki berdi.”


Qo‘llanma “Sport jurnalistikasining asosiy xususiyatlari”, “Sport jurnalistikasida tahliliy janrlar”, “Jurnalistikada tanqid va kasb etikasi” singari boblar va xulosadan iborat. Kitobga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari, shoira Farida Afro‘z so‘zboshi yozgan. Har bo‘lim yakunida auditoriyada va mustaqil bajarish uchun vazifalar, ma’ruza yuzasidan foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilishi talabalar bilimini mustahkamlashda qo‘l keladi.

Zamonaviy dizaynga ega kitob “Ijod Nashr” nashriyotida chop etilgan.

Nigina ISKANDAROVA



TARMOQLARDA NIMA GAP?



ALIFBOMIZ ISLOHGA MUHTOJMIDI?

Alifbo islohidan tashvishlanayotgan va bu takliflarni to‘g‘ri qaror deb hisoblamaydigan yurtdoshlarimiz kam emas. Lekin avvaldan noqulay, xatolari ko‘p alifboni qo‘llashda davom etish, alifbo osonlikcha yozilmagani, bexato yozishga mos bo‘lmagani uchun xato yozuvlarni qabul qilishda davom etaverish ham yana noo‘rin. Nihoyat, ko‘p millatdoshlarimiz qo‘llay olmayotgan, maktablardagina qoidalar bo‘yicha yozilib o‘rgatilayotgan, texnika tanimaydigan, tan olmaydigan, husnixatda ham ko‘plab to‘xtamlar sababli xatolar ziyod kelib chiqadigan, haqiqiy noshirlarning haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgan alifboga isloh kiritilmoqda.

O‘zgarishlardan qo‘rqmaslik kerak. Isloh savodlilarni savodsiz qilib qo‘ymaydi, aksincha, hushyor torttiradi. Kelajakda bu islohdan katta natijalar ko‘riladi. Biz yaqin 10–20 yilni emas, yuz yillarni o‘ylashimiz, hisobga olishimiz zarur.

Alifbo faqat maktabda savod chiqarish uchungina darkor bo‘ladigan belgilar yig‘indisi emas. U insonning butun umri davomida bilim olishi, fikrini ravon ifodalashi va zamonaviy axborot makonida erkin faoliyat yuritishi uchun ham xizmat qiladi. Davlat qiyofasini belgilaydi, unga oid barcha ma’lumotlarni qayd etishda zarur bo‘ladi.

Yozuv takomillashsa, millionlagan manbalar kelajak avlodga bexato va qulay ko‘rinishda yetib boradi. Har bir harfning aniq va qulay bo‘lishi kitob mutolaa qilishni, hujjatlar bilan ishlashni, kompyuter va mobil qurilmalarda matn terishni yengillashtiradi. Shuningdek, izchil alifbo elektron qidiruv tizimlari, sun’iy intellekt, tarjima dasturlari va xalqaro axborot almashinuvida xatolarni kamaytiradi. Umuman, alifbo nafaqat ta’lim vositasi, balki ilm-fan, texnologiya, madaniyat va jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim poydevordir.

Islohning asosiy maqsadi ham alifboni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va yozishni soddalashtirishdir.

Muhokama qilinayotgan 4 ta harfni yozishda ko‘p xatolar yuzaga kelardi.

Amaldagi	Taklif etilgan
O‘	Ō
G‘	Ğ
Sh	Ş
Ch	Ç

“Sh” va **“Ch”** ikki harfdan iborat. Kompyuter uni ikki alohida belgi deb qabul qiladi. Alifbo tartibida muammolar tug‘iladi. Qisqartma va kodlashda noqulay. Yangi ko‘rinishda bir tovush – bitta harf tamoyiliga mos keladi. Afzalligi – yozish qisqaradi, alifbo izchil bo‘ladi, kompyuter qayta ishlashi, lug‘at tuzish osonlashadi, pasport va xalqaro bazalarda xato kamayadi.

Bugungi **“O‘”** harfi aslida ikki belgidan iborat: **“O + ‘”** Bu apostrofning o‘zi ham bir xil emas. Internetda: **` , ‘, ', ' kabi turli belgilar ishlatiladi. Masalan**, **“O‘zbekiston”** quyidagicha yozilib kelmoqda: **O‘zbekiston, O`zbekiston, Ozbekiston** va hokazo. Qidiruv tizimi bularni har doim ham bir xil deb qabul qilmaydi. Yangi ko‘rinish: **Ōzbekiston.** Afzalligi: apostrof yo‘qoladi, telefon klaviaturasida qulayroq, qidiruv tizimlari yaxshi ishlaydi, domen nomlari va elektron pochta yozishda xatolar kamayadi. **G‘** ham xuddi **O‘** kabi.

Ng harf-birikmasi ham mamlakatimizning barcha hududlarida mavjud emas. Bir harf alifbomiz qatoridan joy olishi uchun u bilan so‘zlar boshlanishi kerak. **“Ng”**ni talaffuz qiluvchilarning ko‘pchiligi bu birikmani “menga, senga” kabi so‘zlar tarkibida ham mavjud deb biladilar.

Islohga umumiy sabablardan biri, bugungi kunda sun’iy intellekt, qidiruv tizimlari, tarjimon dasturlar, elektron hukumat, ma’lumotlar bazalari – barchasi yagona belgilar bilan ishlashni afzal ko‘radi. Turk, ozarbayjon, turkman va boshqa ayrim turkiy tillar lotin yozuvida diakritik belgili (masalan **Ş, Ç, Ğ**) harflardan foydalanadi.

Alifbomizdagi eng noqulay va o‘zaro yozuvlarimizning katta qismida qo‘llanmayotgan belgi – bu aynan apostrofdir. Masalan, fayl nomlarida, internet manzillarida, dasturlashda, ma’lumotlar bazalarida, elektron hujjatlarda apostrof ko‘p hollarda noto‘g‘ri ishlaydi yoki umuman qabul qilinmaydi. Shuning uchun yagona harf qo‘llash texnik jihatdan qulayroq hisoblanadi.

Agar bu o‘zgarishlar to‘liq joriy etilsa, savod chiqarish va alifbo tartibi izchilroq bo‘ladi. Lotin yozuvidan foydalanadigan boshqa turkiy tillar tajribasiga yaqinlashiladi. Yangi darsliklar va hujjatlarni moslashtirish xarajatsiz bo‘lishi uchun darsliklar, hujjatlar faqat yangilash muddati kelgandagina islohdagi alifboga o‘tkaziladi, ya’ni o‘zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Hammasi puxta o‘ylangan. Mutaxassislar shu shaklda yaxshi bo‘lishini aytdilarmi, ularga ishonish kerak. Chunki ular butun millatimizga yaxshi bo‘lishini o‘ylaganlar. Shu kundagi 30–40 yillik avlod birozgina qiynalsa ham, 4 ta harfni qayta o‘rgansa ham, undan keyingi uzoq yillarga munosib alifbo uzatilgani ma’qul.

Bir e’tibor qilib ko‘ring, telefonda xabar terayotganda bexato yozaman, desangiz, apostrof va tutuq belgilari uchun harflar sahifasidan raqamlar sahifasiga o‘tishingiz kerak. Bu ham katta muammo. Aksariyat kishilar xabar yo‘llashda sahifalarni almashtirib o‘tirmaydi. Natijada **“Ozing borasanmi, vaqtim tigiz”** kabi tarzda yozilib, yetkazilaveradi. Mamlakat miqyosida savodning yuqorilab bormasligi sabablaridan biri ham ana shudir.

O‘zbek matnlarini texnologiya yordamida ovozlashtirish jarayonlari va natijalarini kuzatsangiz yoki agar matnni ovozli xizmatlarga solsak, ahvol juda ayanchli bo‘ladi. “Alifbodagi ozgarishlar, belgilar yigindisi” deb o‘qib beradi. Siz ham bunga necha bora guvoh bo‘lgansiz. Bularning hammasi nobop alifboning xizmati.

Umuman, amaldagi alifboga isloh juda zarur edi. Shuning uchun bu o‘zgarishlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ma’mura ZOHIDOVA
Facebook

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 501
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 912
Lotin yozuvida – 11 589
Media kuzatuvchilar – 85 424
Buyurtma: G – 740
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 66

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI